

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**Adabiyot fanidan tajriba tadqiqot maydonlari
uchun dars ishlanmalari**

Toshkent - 2011

**Adabiyotdan tajriba– tadqiqot maydonlari uchun taqdim etilgan dars
ishlanmalari ro`yxati
(I-II chorak)**

Adabiyot				
Sinf	T/r	Mavzu	Chorak	Dars
5	1	Xans Xristian Andersen. "Bulbul" hikoyasi	2	
5	1	G`.G`ulom. "Mening o`g`rigina bolam"	2	
6	1	J. Rodari. "Hurishni eplolmagan kuchukcha"	1	
6	2	E. Vohidov "O`zbekim" qasidasi	2	
7	1	Kirish. "Badiiy so`z qudrati"	1	
7	2	Ch. Aytmatov. "Oq kema" asari	2	
8	1	Lutfiy lirikasi	1	
8	2	A. Navoiy. "O`n sakiz ming olam..." g`azali	2	
9	1	"Alpomish" dostoni	1	
9	2	A. Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi	2	

**H. Фулимова,
PTM**

5-sinf 1-chorak

Mavzu: Xans Xristian Andersen. "Bulbul" hikoyasi

Darsning maqsadi:

Talimiy: o`quvchilarni asar matni va uning mazmuni bilan tanishtirish

Tarbiyaviy: o`quvchilarda chin ezgulik va gozallikni payqash
tuyg`usini shakllantirish

Rivojlantiruvchi: o`quvchilarda aslni soxtadan ajratish, o`zgalarning
tuyg`ylariga sherik bo`la olish ko`nikmalarini shakllantirish

Darsning metodi: Aqliy hujum, interfaol usullar, savol-javob

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Uyga berilgan vazifani so`rash
 3. Yangi mavzuni bayon qilish. Aqliy hujum
 4. Hikoyani o`qish va matni ustida ishlash
 5. Yangi mavzuni mustahkamlash. Guruhlarda ishlash
 6. Yakka tartibda ishlash. Mustaqil ish
 7. Rag`batlantirish. Baholash
 8. Uyga vazifa
- Uyga berilgan vazifa so`ralib, mustahkamlanadi

Yangi mavzuni bayon qilish. Aqliy hujum

Andersen kim? Uning qaysi asarlarini o`qigansiz? Asarlari asosida yaratilgan qaysi filmlarni bilasiz?

Javoblar to`ldirilib umumlashtiriladi va yangi mavzu bayon qilinadi. Hikoya matni o`qituvchi tomonidan o`ziga xos tarzda o`qib beriladi. Asar yuzasidan quyidagi savol-topshiriqlar asosida suhbat tashkil etiladi.

1. Asl va soxta bulbul haqida fikr bildiring
2. “Jonli bulbul har gal o`zicha kuylar, sun`iy bulbul esa ... faqat bir yo`sinda qo`shiq aytar edi”, – degan tasvirning tagidagi ma`noni toping.
3. “O`rmonga ketib qolgan bulbul va yning bu harakatini qoralagan olomonni bir-biriga solishtirib, fikr bildiring”
4. “Saroy musiqachisi haqiqiy bulbulning kamchiligi sifatida : “...qachon qanday qo`shiq aytishini oldindan bilib bo`lmaydi”, – deb bildirgan e`tiroziga qanday qaraysiz?”
5. Asl bulbul ovozi eshitganda: “Yo parvardigor, hayot naqadar yaxshi!” degan kambag`al baliqchi, “Shunday paytda ko`zlarimdan duv-duv yosh oqadi, onajonim bag`rida orom olayotganday, sevinib, ichimga sig`may ketyapman!” degan oshpaz qizcha so`zlarini izohlang
6. “Sun`iy bulbulga berilgan unvonning nomi haqida chuqurroq o`ylab ko`ring”
7. “O`lim to`shagidagi shahanshohning ko`ziga chiroyli va xunuk arvohlarning ko`rinishi sabablari haqida gapiring.
8. “Sun`iy bulbulning sayramay qolish sababini toping”.

Berilgan savollarga kutilganidek javob chiqmasligi mumkin. Bund o`qituvchi asardagi muhim o`rinlarni qayta o`qitadi va yo`naltiruvchi qo`shimcha savollar bilan o`quvchilarni bahsga chorlaydi.

Guruhlarda ishlash. O`quvchilar guruhlariga bo`linib, nomlanadi va har bir guruhga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Ko`pchilikka mustaqil yo`li bor bulbul emas, o`rgatilganni qaytaradigan sun`iy qush yoqqanligi sababini izohlang.
2. Asl bulbulning mamlakatdan quvilishiga munosabat bildiring. O`zimizga yoqmaydigan talantli kishilarni haydagan to`g`rimi yoki unga sharoit yaratib bergan ma`qulmi?
3. “Shahanshohning ko`zlaridan yosh oqqanini ko`rdim– bundan ortiq mukofot bo`lmaydi. Shahanshohning ko`z yoshida katta qudrat bor. Xudo

shohid – menga bundan ortiq mukofot kerakmas!” Ko`z yosh nimaning belgisi?

4. Bulbulning hukmdorga: “...seni boshingdagi tojing uchun emas, qalbing uchun sevaman”, degan gapini odamlar o`rtasidagi munosabatlarga ko`chirib tahlil qiling.

Guruhlar taqdimoti o`tkaziladi. O`quvchilar berilgan savollarga javob topishga qiynalishlari mumkin. Shunda o`qituvchi yordamga kelishi va hikoya mazmunini davrga bog`lab tushuntiradi. Mn: Asl inson go`zallikdan bahra ola biladigan, huzur qiladigan, bahra olishga moyil, yoqimli ovozdan ta`sirlanadigan, zavq-shavqqa to`ladigan bo`ladi va bundan ko`ngli ham tani ham yayraydi. Biroq bosh vazir va saroy amaldorlariga o`xshash bulbul degan narsaning borligini ham bilmaydigan, bulbul xonishini sigir ma`rasgi, qurbaqa vaqirlashidan farqlamaydigan, faqat bir yo`sindagi qo`shiq tinglashdan nariga o`tolmaydigan insonlar hayotimizda ham uchrab turishi o`quvchilarga anglatilsa, ular odamlarning turfa tabiatga egaligi, ruhiyati, qalbi toza, samimiy insonlarga go`zallikni ko`ra olishi, his qilishini tushunadilar.

VENN diagrammasi asosida asl bulbul va soxta bulbul tabiatiga qiyosiy ta`rif beriladi.

Yakka tartibda ishlash. Mustaqil ish. O`quvchilarning har biriga quyidagicha topshiriq beriladi:

Hikoya qahramonlarini ikki ustunga bo`lib chiqing

Asl inson	Soxta inson
1. Oshpaz qizcha	1. Bosh vazir
2. Baliqchi	2. Saroy musiqachisi va h. k

Vazifa bajarilgach, har bir o`quvchi nima uchun shunday xulosaga kelganligini asoslab berishi talab etiladi.

Baholash: Faol ishtirokchilar rag`batlantiriladi.

Uyga vazifa: Ijodiy ish. “Asl inson qanday bo`ladi?”

5-sinf 2-chorak

II. Mavzu: G`afur G`ulom "Mening o`g`rigina bolam" hikoyasi

Darsning maqsadi:

- asarning mazmun-mohiyati haqida bilim berish, mustaqil fikrlashga o`rgatish;
- o`quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- o`quvchilar dunyoqarashini shakllantirish.

Darsning jihozi: G`ulom asarlari, yozuvchi hayoti va ijodiga bag`ishlangan fotoalbom, video tasvir.

Darsning metodi: Aqliy hujum, interfaol, suhbat

Darsning borishi:

1. O`tilgan mavzuni so`rash va mustahkamlash.
2. Yangi mavzuni bayon qilish.

3. Aqliy hujum.
4. Asar ruhini anglatuvchi sahna ko`rinishi.
5. Asar yuzasidan bahs- munozara.
6. B.B.B. usuli.
7. Darsni mustahkamlash, baholash, rag`batlantirish.
8. Uyga vazifa.

O`tilgan mavzu M. Osimning "Zulmat ichra nur» asari va undan chiqarilgan xulosalar yuzasidan savol-javob orqali suhbat o`tkazilib, mustahkamlanadi.

Yangi mavzuni bayon qilish.

Aqliy hujum:

G`afur G`ulom kim, u haqda nimalarni bilasiz? O`quvchilarning javoblari doskaga yozib boriladi, asosli javoblar umumlashtiriladi.

O`qituvchining kirish so`zi. Darslikda berilgan materiallar va qo`shimcha ma`lumotlar asosida G`afur G`ulom tarjimai holi yuzasidan qisqa suhbat o`tkaziladi.

Hikoya matni ifodali o`qiladi. Matnni o`qishda hikoya mazmunidan kelib chiqib iaodali o`qishga, ovozni tovlantirib, o`rni bilan balandlatib, pastlatib o`qilishiga ahamiyat berish muhim. Shunday qilinganda o`quvchi nafaqat eshitadi, balki his etishga ham o`rganib boradi. Matn o`qib bo`lingach (o`quvchilar ikki guruhga bo`linadi: 1- "Bilimdonlar" guruhi, 2- "Chaqqonlar" guruhi), asar yuzasidan suhbat tashkil etiladi.

Savol- javob o`tkazish:

1. Hikoyada qaysi davr voqealari tasvirlangan?
"Bilimdonlar": XX asr boshlarida birinchi jahon urushi davridagi xalq hayoti manzarasi tasvirlangan.
2. O`g`rini tun qorong`usida hovli oshib o`g`rilikka tushishga nima majbur qildi?
"Chaqqonlar: oilani boqish tashvishi majbur qildi.
3. Qora buvining olti oydan buyon uyquasi kamligiga sabab nima?
"Bilimdonlar": bolalarni boqish, ertasini o`ylash, uyli- joyli qilish.
4. O`g`ri nima uchun boshqa kasb bilan shug`ullanmadi?
"Chaqqonlar": chunki o`sha davrda barcha kasbning bozori kasod edi.
5. Nima uchun o`g`ri boylarnikini emas, kambag`alning uyini tanladi?
"Bilimdonlar": boylarning uyini devori baland, itlari qopag`on. O`g`rini ushlashlari uchun qorovullari bor edi.
6. O`g`ri nima uchun buvi bilan choy ichishga unamadi?
"Bilimdonlar": tong otib qolsa buvi uni tanib qolishi mumkin edi.

**Sahna ko`rinishi:** oldindan tayyorlangan sahna ko`rinishi namoyish etiladi: *Tor eski hovli. Uvada ko`rpa- to`shaklarga o`ralib yotgan yetim bolalar. Qora buvi va o`g`ri suhbatlashmoqdalar.*

Mazkur ko`rinish hamda o`rganilgan asar matni yuzasidan o`quvchilar **bahs-munozaraga** tortiladi.

O`qituvchi:ushbu sahna ko`rinishi orqali kim qanday tasavvurga ega bo`ldi?

O`quvchi: mening tushunishimcha, bu sahna orqali G`afur G`ulomning yoshlik yillaridagi davr ifodalangan.

O`quvchi: ha, to`g`ri aytdingiz, bu qisqa sahna orqali yozuvchining bolalik yillari qay tariqa kechganligining guvohi bo`ldik.

O`quvchi: buvining o`g`riga bo`lgan munosabati meni hayron qoldirdi.

O`quvchi: onaxon buvi qalbidagi onalarga xos cheksiz mehr- muruvvat tufayli o`g`ri chin insoniy fazilatlarni tushunib yetdi.

O`quvchi: buvining o`g`riga muruvvati uning haqiqiy insoniy fazilat egasi ekanligini namoyon etgan.

O`quvchi: hayot shunday beshafqat, og`ir bo`lgan davrda ham shum niyatli o`g`ri qalbini yumshata olgan, o`zi nochor bo`lsa- da, o`g`riga achinib, "Qutlug` uydan quruq chiqmasligi, hech bo`lmasa qozonni olib ketishini so`ragan qora buviga nisbatan qalbmida cheksiz muhabbat uyg`ondi.

B.B.B strategiyasi bo`yicha oldindan tayyorlangan quyidagi jadval to`ldiriladi.

Nimani bilar edik		Nimani bilmoqchimiz		Nimani bildik
Biz shu darsgacha G`.G`ulomning "Shum bola"asari bilan tanish edik	Biz esa "Shum bola" asarini o`qib, televideniye orqali tomosha qilib G`.G`ulomning hajviy asarlar muallifi deb bilardik.	G`.G`ulomning hayot yo`li to`g`risida va "Mening o`g`rigina bolam" asari yuzasidan kengroq ma`lumotga ega bo`lishni	Bu asar orqali o`sha davr voqealari, bizning tengdoshlarimizning bolalik davri qanday o`tganligini	Dars so`ngida ko`rgazmani to`ldirish

Jadval shu tariqa to`ldirib boriladi.

Milliylik haqida ma`lumot.

O`quvchilar, siz bilan o`qib tahlil qilganimiz, voqeyiy hikoyadir. Shuning uchun bu hikoya aynan hayotning o`zidek tasvirlangan yetuk romantik asar bo`lib, haqiqiy milliy jozibaga ega. Milliylik bu- asarda millat, xalq turmushi manzaralarini milliy urf- odatlarini millat vakillariga xos xususiyatlarni jonli. hayotiy ko`rsatishdadir. Hikoyadagi kampirning bolajonligi, saxovati, mehribonligi, o`zi qashshoq bo`lsa-da, mehmondo`stligi o`zbek xalqiga xos milliy xususiyatlardir.

Dars yakunida guruhlar orasida eng ko`p ball to`plagan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

Uyga vazifa: "Oradan o`n yil o`tdi" O`g`ri qora buviga xat yozdi.(Sizningcha o`g`rining hayot yo`li, kasbi o`zgardimi, fikringizni yozing).

6-sinf 1- chorak

Mavzu: Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagi

Darsning maqsadi:

- o`quvchilarni ertaklarning sehrli olamiga oshno etish. Ertak matni bilan tanishtirish;

- ertak tahlili orqali o`quvchilarda o`z-o`ziga ishonchni mustahkamlash;

- o`quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, tahlili orqali o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijod qilishga o`rgatish.

Darsning metodi: interfaol, aqliy hujum, guruhlarda ishlash, munozara.

Ertakni o`qish uchun 3 soat ajratilgan bo`lib, **1-soatni** quyidagi reja asosida o`tkazish mumkin:

Darsning borishi:

- 1.O`tilgan mavzuni so`rash.
- 2.Yangi mavzuni bayon qilish
- 3.Aqliy hujum
- 4.«Yozuvchi o`zi haqida» maqolasi va ertak matnini o`qish.
- 5.Guruhlarda ishlash.
- 6.Fikrlar himoyasi.
- 7.Uyga vazifa topshirish.

O`tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Yangi mavzu «Aqliy hujum» bilan boshlanadi. J.Rodari kim, uning qaysi asarlarini o`qigansiz?

O`quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Darslikda J. Rodari bo`yicha axborot beruvchi adibning o`zi haqida yozgan esdaliklari berilgan. Yozuvchi o`zining qay tarzda ijodkor bo`lib qolganligi haqida bolalarcha oq ko`ngillik bilan qilgan hikoyasi o`quvchilarda yorqin taassurot qoldiradi. Chunki uning bolalik xotiralari o`z samimiyligi bilan o`quvchilar ruhiyatiga yaqin. Ularda qaysi qit`ada yashashi, dini, irqi, tanasining rangidan qat`iy nazar barcha bolalarga xos jihatlar mavjud. O`z ertaklari bilan dunyo bolalarining muhabbatini qozongan, ularning sevimli do`stiga aylangan buyuk yozuvchining xuddi o`zlariga o`xshagan orzulari bo`lgani, ularning qay biriga erishib qay biriga erisholmagani, o`zligini topguncha ancha izlangani, u ham ba`zan yomon baholar olgani va ayniqsa, bunga samimiy iqrar bo`lgani bolalarni o`ziga tortadi.

Guruhlarda ishlash:

Maqola o`qilgandan keyin o`qituvchi bolalar bilan matn ustida ishlash uchun o`quvchilarni guruhlariga bo`ladi va har bir guruhga topshiriqlar beradi:

- 1.Yozuvchi bilan sizning orzularingiz o`rtasida o`xshashlik bormi?
- 2.Uning ayrim sohalarda o`z no`noqligini tan olganiga qanday qaraysiz?
- 3.Yozuvchining «so`zlardan o`yinchoq yasashga kirishgani...»ni qanday tushundingiz?
- 4.«...har bir kishiga yoqimli, har bir kishining didiga mos, boshqa o`yinchoqlarga o`xshamaydigan, hech qachon ko`ngilga urmaydigan...» o`yinchoq haqida fikr bildiring.
- 5.Ijodkor fikrining haqiqat ekanligiga, uning yozuvchi bo`lish uchun uzoq tayyorgarlik ko`rganligini qanday tushundingiz?
6. «...boshqalarning o`z fikrlarini bayon qilishlarida, so`zlashlarida, kattalarga savol berishlarini talab qilishlarida dalda yoki turtki...» bo`lishi nima uchun adibni o`n chandon xursand qiladi?

Bolalar topshiriqlar ustida ishlashsin, tahlil qilishsin, munosabat bildirishsin. Insonga berilgan ilohiy ne`mat, tug`ma iste`dod uning o`zi tomonidan

rivojlantirilishi lozimligi, buning uchun odam intilishi, izlanishi kerakligi bolalar shuuridan kechsin, yozuvchining ertak yozishdan maqsadi nima ekanligiga, o'zgaralar manfaatini ko'zlaganligiga munosabat bildirsinar. Shunda «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagini adib ta'kidlaganidek, «zo'r ishtaha bilan paqqos» tushirishlari va «osonlik bilan hazm qilib yuborishlari mumkin» bo'ladi.

Fikrlar himoyasi: har bir guruh berilgan topshiriq bo'yicha fikrlarini taqdim etadi.

Guruhlarning fikrlari o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va umumlashtiriladi.

Shundan keyin ertak matni o'qituvchi tomonidan ifodali, ta'sirchan ohang bilan o'qib beriladi. Ertakni o'qishdan oldin o'qituvchi bolalarga J. Rodarining ertakchilikdagi o'ziga xos xususiyati-har bir ertakning bir necha tugallanishi borligi va har bir tugallanishni diqqat bilan kuzatishlari lozimligini ta'kidlaydi. Ertakni o'qiganda o'qituvchi bor mahoratini ishga solishi, o'quvchilarda yaxshi taassurot uyg'otish uchun har bir jonivorning ovozi o'xshatishga harakat qilishi, imkon qadar buning tabiiy chiqishini ta'minlashi kerak bo'ladi. Ertak o'qilgandan keyin o'quvchilarga biroz dam berilgach, savol- topshiriqlar bilan ishlashga o'tiladi. Faol o'quvchilar ragbatlantiriladi va baholanadi.

Savol- topshiriqlarning davomiga mustaqil javob topish **uyga vazifa** etib topshiriladi.

Imkon bo'lsa ertakka ajratilgan ikki soatni yaxlitlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

2-dars

Dars quyidagi reja asosida olib borilishi mumkin:

Tashkiliy qism

1. O'tilgan mavzuni davom ettirish.
2. Guruhlarda kartochkalar bilan ishlash.
3. Savol-topshiriqlar bilan ishlash.
4. Fikrlar himoyasi.
5. Ertakning uchala tugashi bo'yicha muhokama
6. To'rtinchi va beshinchi tugashi bo'yicha ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik.

Guruhlarga quyidagi topshiriqli kartochkalar tarqatiladi:

1-kartochka

Xo'roz bilan kuchukning suhbatini yana bir bor o'qing. Bu suhbatda ularning tabiatiga xos jihatlar qanday namoyon bo'lganligini toping

2- kartochka

Xo'rozday qichqirishni va kakkuday sayrashni o'rganib olishiga qaramay kuchukcha nima uchun atrofdagilarning e'tiborini qozona olmadi deb o'ylaysiz?

3-kartochka

Duch kelgan mahluqqa o'q otaveradigan ovchining tabiatini tavsiflab berishga urining. Ovchining o'qidan zo'rg'a omon qolgan kuchuk nimalarni o'ylaydi-yu, o'ljasiz qolgan ovchi nimalarni xayol qildi?

4- kartochnka

Ertakning ikkinchi tugashidagi so`nggi jumlaning o`qiling. Bu gapda qanday ma`no yashiringan deb o`ylaysiz? Ertakning uchinchi tugashida kuchukcha birdaniga hura ketibdi degan ta`kidni qanday izohlaysiz?

5-kartochnka

Sizga ertakning nechanchi tugashi yoqdi? Nima uchun? Xulosalaringizni asoslashga urinib ko`ring.

6-kartochnka.

Hurishni bilmaydigan kuchukcha bilan o`z tilini bilmaydigan odam o`rtasida qanday o`xshashlik bor deb o`ylaysiz? Sizningcha kuchukchanning qaysi xatti-harakatini havas qilishga loyiq fazilat deb baholash mumkin?

Fikrlar himoyasi:

Har bir guruh o`zlarining umimlashgan fikrlarini himoya qiladilar. O`qituvchi ularni to`ldiradi va umimlashtiradi.

Darslikdagi savol-topshiriqlar bo`yicha har bir bola o`zicha xulosa chiqarsin, o`z fikri, o`z dunyoqarashi, o`z hayotiy tajribasidan kelib chiqib munosabat bildirsin.

O`qituvchi o`quvchilarning o`z fikrlarini asoslashlariga e`tibor qaratishi kerak. O`quvchi fikrini asoslay bilsa, unda qat`iylilik tuyg`usi, mustaqil fikrlashga urinish shakllana boradi.

Matn bilan ishlash jarayonida o`qituvchi o`quvchilarni asar qahramonlarining xatti-harakatiga, bir-biriga munosabatiga e`tibor berishga jalb qilishi kerak. Chunonchi, ertakdagi xo`roz, kakku va sigir loqayd emaslar. Ular kuchukchanning iztiroblariga befarq qarab turmaydilar, unga qo`llaridan kelgancha yordam berishga urinadilar. Kuchukchanning dardini his etadilar. O`quvchilar xuddi shu holatni insonlar orasiga ko`chirsinlar, hayotda ko`rganlari bilan taqqoslasinlar. Ovchining xatti-harakatiga baho bersinlar, kuchukchanning faoliyatini kuzatsinlar. U o`zi mansub bo`lgan jinsga xos ishni bilmaydi, bundan iztirob chekadi. Kalaka qilib ustidan kulganlarida yig`lamoqdan beri bo`ladi. Shunga qaramay tushkunlikka tushmaydi, izlanishda davom etadi. Nihoyat hurishni o`rganib oladi. Shu o`rinda ertakning uchinchi tugashida boshqa bir kuchukning ovozi kuchukchanning qulog`iga ne sababdan buncha issiq eshutilganiga, yuragi jiz etib ketganiga, bu ovoz uning yuragini o`ynatib yuborganiga, o`z ishtiyoqi, intilishi va mehnati bilan qotirib qichqirish va qoyil qilib sayray olishga erishganiga o`quvchilar e`tibori qaratilishi lozim.

Dars oxirida **uyga vazifa** etib ertakni yana qanday tugatish mumkinligi haqida o`ylashni, keyingi darsda yozilajak ertakka tayyorgarlik ko`rish topshiriladi.

3-soat

Darsning borishi:

1. Klaster usuli.
2. Ertakning to`rtinchi va beshinchi tugashi bo`yicha ertak to`qish.
3. «Ertak to`qish mashqi»


4. O`quvchilarga bir-birlarining to`qigan ertaklarini o`qitish.

5. Mustaqil ish.

6. Uyga vazifa topshirish.

Klaster usulidan foydalanib, kuchukchaning sifatlarini yozib chiqish topshiriladi.

Klaster usuli



Shundan keyin bolalar ertak to`qishga o`rgatiladi. Bu darsda bolalar ijod qiladilar. O`zlari mustaqil ertakning to`rtinchi, qurbi yetganlari beshinchi tugashini yozadilar. O`qituvchi bolalarga ijod erkinligini berishi kerak, ular qanday xohlasalar shunday yozsinlar. O`quvchi balki quyi sinflarda ham shu ish bilan shug`ullangandir, balki bunday topshiriq bilan birinchi marta to`qnashayotgandir. Har ikkala holatda ham o`qituvchi bolaning fikrini hurmat qilishi kerak. O`z ishiga o`qituvchisining qiziqib munosabat bildirishi o`quvchida o`z ijodiga, faoliyatiga ishonchni mustahkamlaydi. Shuning uchun o`qituvchi samimiy bo`lishi, hech qanday soxtagarchilikka yo`l qo`ymasligi kerak. Bir-birlarining ertaklarini o`qigan bolalarni ham shunga o`rgatish, ularda muomala madaniyatini, o`zgalarni tuyish hissini shakllantirish lozim. O`quvchilar sinfdoshlarining ijodlariga munosabat bildiradilar. Eng yaxshi yozilgan ertaklar rag`batlantiriladi.

Shundan keyin «Adabiy ertak» ilmiy- nazariy maqolasi o`qitilib tushuntiriladi.

Ertaklarning tugallanishidagi eng asosiy fikrni quyidagi jadvalga yozib chiqish mustaqil vazifa etib topshiriladi.

Ertak nomi	Ertakning birinchi tugashi. Asosiy fikrni yozish	Ertakning ikkinchi tugashi.	Ertakning uchinchi tugashi	Ertakning to`rtinchi tugashi	Ertakning beshinchi tugashi
Hurishni eplolmagan kuchukcha					

O`qituvchi o`quvchilar faoliyatini baholab, ularni rag`batlantirgach, darsni yakunlaydi.

Uyga vazifa qilib ertak yuzasidan rasm chizib kelish topshiriladi.

6-sinf 2- chorak

Mavzu: Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi

Darsning maqsadi:

- hikoyani o`qish, matn ustida ishlash;
- nochorlik, kambag`allik oldida insonning qanchalar o`jizligini anglatish, bolalarning ko`nglida o`zgani anglash, achinish hissini tarbiyalash;
- davrga munosabat bildirish va qiyoslash hissini rivojlantirish

Darsning metodi: interfaol, evristik metod.

Darsning ko`rgazmaliligi: yozuvchi portreti, asarlari, suratlar.

O`tilgan mavzu so`ralib, mustahkamlanadi

Yangi mavzuni bayon qilish

Aqliy hujum: hikoya epigrafida berilgan “Osmon yiroq, yer qattiq” maqolini kim qanday tushundi?

O`quvchilar fikrlari tinglanadi. Ular o`qituvchi kutganidek bo`lmasligi ham mumkin. O`qituvchi asosliroq javoblarni rag`batlantirgan holda inson hayotida hamisha quvonchli va qayg`uli damlar mavjudligi, ba`zida quvonchli kunlar bo`lsa, ba`zan g`amning zo`ridan odamga dunyo tor bo`lib ketishi, kasallik, buning ustiga qo`li kaltalik, moddiy yetishmovchilik insonni nochor ahvolga solishi, bunday ahvoldan chiqish uchun odam yo`l topolmay qolishi mumkinligi haqida gapirib, maqolning shunday holatga tushgan odam ahvolini ifodalashini tushuntiradi.

Hikoya matni o`quvchilar bilan birga o`qib chiqiladi.

Hikoya matnga tayangan holda badiiy tahlil etilgani, asarga berkitilgan hayotiy, badiiy haqiqatlarni bolalar o`zlari kashf etganlari ma`qul. O`quvchilar e`tibori, avvalo, xotini og`rib qolganda Sotiboldi ko`rgan tadbirlarga qaratiladi.

Guruhlarda ishlash.

Topshiriqlar: 1. Sotiboldi bemor ayolini davolash uchun qanday tadbirlarni ko`rdi va ular nima naf berdi?

2. Xotini og`ir betob bo`lishiga qaramay nima uchun Sotiboldi uning yonida chiviqlar ichida tinmay savat to`qishining sababi, qizchanning holati tasviri, bemor har ingraganda “Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday” azob tortib talvasaga tushishi sabablari haqida fikr yuriting.

3. Asar qahramonlari boshiga tushgan baxtsizliklarning asl sabablari haqida o`ylab ko`ring va bahs-munozara yuriting.

4. Bemor holatini tasvirlashdagi adib mahorati nimada?

5. Sotiboldining iqtisodiy ahvoli nochor ekanligi haqida yozuvchi biror so`z aytganmi, uni qanday tasvirlagan?

6. Adibning Abdug`aniboy va Sotiboldi xotinining kasalligini tasvirlashdagi mahorati haqida fikr yuriting.

O`qituvchi tahlilda o`quvchilarning asar mohiyatiga kirishlarida yordam berib turishi kerak. Bu asar qahramonlari boshiga tushgan baxtsizliklarning asl

sabablari haqida o'quvchilar o'ylab ko'rishlari va xulosa chiqarishlariga yordam beradi.

Hikoyada ifodalangan: «Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Bemorning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi, xipchin bilan savalatib, tovuq so'yib qonlati..., bo'lmadi. O'quvhida kasalxonaga olib bora qolsa bo'lmaydimi, degan tabiiy savol tug'ilishi mumkin. “Doktorxona” haqidagi Sotiboldining tasavvuriga o'quvchilar diqqatini qaratish, Sotiboldining iqtisodiy ahvolini payqatish, ayni vaqtda, bu haqda yozuvchi bir og'iz ham gapirmaganligiga e'tibor qaratishlari lozim. “Sotiboldining iqtisodiy ahvoli nochor ekanligini qayerdan payqadingiz?” degan savol bolalarni ziyrak torttiradi. Shundan so'ng o'qituvchi aytmasdan anglatish, ma'lumot bermay xabardor etish uchun yozuvchi qanchalar mahoratli bo'lishi lozimligi haqida, bu fazilat faqat Qahhorgagina xosligi to'g'risida o'quvchilarga tushuncha beradi.

Har qanday haqiqat qiyosda oydinlashadi. Shu jihatdan Sotiboldining ahvoli nechog'lik nochorligi, xo'jayini Abdug'aniboy imkoniyatlarini axborot tarzida bildirilganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ham adibning tasvirlash mahorati qanchalar yuqori ekanini namoyish etadi. Xo'jayinning Sotiboldi orzu ham qilolmaydigan “doktorxona”ga bormay, Simga ketganligi haqidagi shunchaki axborot, aslida «shunchaki» bo'lmay odamlar imkoniyati o'rtasidagi o'tib bo'lmas farqlarni anglatadigan va shu jihati bilan baxtsizning baxtsizligini yanada bo'rttirib ko'rsatadigan vositadir. Muallif o'ta «sovuqqonlik» bilan Abdug'aniboyning qoplar tagida qolib «o'ladigan» bo'lganda Simdagi “doktorxona”ga borganligi haqida xabar berganday bo'ladi. Holbuki, Sotiboldining xotini to'g'risida biron joyda ham “o'ladigan” tarzidagi sifatlarni qo'llamaydi. Katta imkoniyat “o'ladigan” kasalni oyoqqa turg'izishi mumkin bo'lganidek, imkoniyatsizlik, chorasizlik “og'rib qolish”day oddiygina kasallikni ham o'lim bilan yakunlanadigan xastalikka aylantirishi mumkin ekan. Bunday natijaga bolalar o'qituvchi yo'naltirishi bilan o'zlari erishishlari kerak. O'qituvchining vazifasi savol-topshiriqlar bilan bolalar e'tiborini mana shu haqiqatlarga qaratishdan iborat.

Tahlil shu tariqa davom ettiriladi.

Guruhlar taqdimoti.

VENN diagrammasi asosida Sotiboldi va Abdug'aniboyning imkoniyatlari qiyoslanadi.

Rag'batlantirish va baholash.

Uyga vazifa: Taassurot yozish. «Bemor» hikoyasi haqida o'ylaganlarim»

7- sinf I-chorak

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu:	Kirish. Badiiy soʻz qudrati
Maqsad va vazifalar	Maqsad: o'quvchilarga “Badiiy soʻz qudrati” maqolasi mazmunini singdirish; -o'quvchilarda badiiy soʻzni qabul qilish va undan ta'sirlanish ko'nikmasini shakllantirish; -o'quvchilarda sog'lom adabiy didni tarkib toptirish

	Vazifalar: o`quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini uyg`otish. Ularda mavzu asosida bilim va ko`nikmalarni shakllantirish. O`quvchilarning mavzuni o`zlashtirganlik darajasini aniqlash.
O`quv jarayonining mazmuni	So`zning qudrati, so`z san`ati, badiiy adabiyot so`z san`ati, ma`naviy fazilatlarni shakllantirishda ko`rkam adabiyotning o`rni, badiiy obraz, og`zaki va yozma adabiyot, lirik, epik va dramatik adabiyot
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: didaktik o`yin, og`zaki so`rov <b>Shakl:</b> yakka tartibda ishlash <b>Vosita:</b> darslik, kodoskop, I. A. Karimovning “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asari”, slaydlar. Nazorat: og`zaki nazorat, Baholash: 5 balli tizim asosida
Kutiladigan natijalar	O`qituvchi:</b> o`quvchilarda badiiy so`zni qabul qilish va undan ta`sirlanish ko`nikmasi va ularda sog`lom adabiy didni tarkib toptirish Mavzuning dars jarayonida ta`limning ilg`or usullari vositasida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishiga erishish. O`quvchi faolligini oshirish. O`quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg`otish. Bir darsda barcha o`quvchini baholash. O`quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o`rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazishga erishish. O`quvchi:</b> So`zning qudrati, so`z san`ati, badiiy adabiyot so`z san`ati, ma`naviy fazilatlarni shakllantirishda ko`rkam adabiyotning o`rni, badiiy obraz, og`zaki va yozma adabiyot, lirik, epik va dramatik adabiyot haqida tushunchaga ega bo`lish. Qisqa vaqt ichida yetarli ma`lumotga ega bo`lish.
Kelgusi rejalalar	O`qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish. <b>O`quvchi: Mustaqil ishlashni o`rganish. O`z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlash, ularni o`rganish. O`rtoqlari fikrini tahlil qilish.
Uyga vazifa:	Mavzuga doir savol va topshiriqlarga javob yozish

Mavzu: Kirish. Badiiy so`z qudrati

**Darsning ta`limiy maqsadi:** o`quvchilarga “Badiiy so`z qudrati” maqolasi mazmunini singdirish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o`quvchilarda badiiy so`zni qabul qilish va undan ta`sirlanish ko`nikmasini shakllantirish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarda sog'lom adabiy didni tarkib toptirish

Darsning metodi: guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.

Dars materiallari va jihozlari:

- «Adabiyot» darsligi, I. A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari”, slaydlar.

Asosiy tushunchalar va atamalar: So'zning qudrati, so'z san'ati, badiiy adabiyot so'z san'ati, ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda ko'rkam adabiyotning o'rni, badiiy obraz, og'zaki va yozma adabiyot, lirik, epik va dramatik adabiyot

O'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka:

- “Badiiy so'z qudrati” maqolasi mazmunini o'zlashtirish, badiiy so'zni qabul qilish va undan ta'sirlanish ko'nikmasini shakllantirish, sog'lom adabiy didni tarkib toptirish.

Dars bosqichlari:

1. Tashkiliy qism
2. Kirish suhbat
3. Yangi mavzu bayoni
4. Guruhlardagi ishlash
5. Guruh ishlari himoyasi, o'quvchilarni baholash
6. Mustahkamlash
7. Uyga vazifa

Darsning borishi: Diqqatni jamlash uchun quyidagi 4 misra she'r o'qiladi.

Darsni boshlashdan oldin ta'til taassurotlari, o'qilgan asarlar asosida qisqa suhbat o'tkaziladi va yangi mavzuga bog'lanadi.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda shamolning belanchagida
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul
Viqorla o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak

Savol: She'r misralari qaysi shoir qalamiga mansub, ular sizning ruhiyatingizga qanday ta'sir qildi? Javoblar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Yangi mavzuning bayoni: Sinf o'quvchilari 2 guruhga ajratiladi. Har bir guruhga matnlar berilib, u kodoskop orqali ko'rsatiladi.

1-guruhga:

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar,
Tong otmoqda, Quyosh-zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar
Boshlarida yashil chambarak.

Savol: Shoir tong otishini qanday tasvirlagan?

2-guruhga: *“Butun Turkiston o'lkasida 1918-yildan 1930-yillargacha davom etgan milliy ozodlik kurashi jarayonida halok bo'lganlarning sonini*

hech kim bilmaydi. Taxminiy hisob-kitob qilishlaricha, faqat Turkiston o'lkasida halok bo'lganlar soni 800000 dan ortiq.... Ko'plab oilalar o'z uy-joylarini tashlab, ... boshqa o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar".

Savol: Matn voqealari qanday tasvirlangan?

Guruh a'zolari o'z javoblari taqdimotini qiladilar.

O'quvchilarning savollarga bildirgan fikrlari umumlashtirilib quyidagi xulosali fikrlar bayon qilinadi. Slaydda berilgan fikrlar ko'rsatiladi.

O'qilgan she'riy matnni idrok etdingiz. Bunda so'zning qudrati baland ekanligini his etdingiz. Shuning uchun ham dastlab "Yaral" degan so'z paydo bo'lgan. Bu so'z bilan o'n sakkiz ming olam yaralgan. Demak, so'z olam va undagi narsalardan oldin paydo bo'lgan ekan. So'zning cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo'ladi. Biz o'rganayotgan Adabiyot ana shunday qudratga ega so'z bilan ish ko'radigan san'at turidir. SHuning uchun ham badiiy adabiyot –so'z san'ati deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot san'atning murakkab va serqirra turi, insonda yuksak ma'naviyat shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir.

1-slayd

“Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas albatta”

(I. A. Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari)

2-slayd

Badiiy adabiyot ***og'zaki va yozma*** turlarga bo'linadi

Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra ***lirik, enik va dramatik*** singari turlarga bo'linadi.

Ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri ***badiiy obraz*** deyiladi.

Badiiy adabiyot san'atning nihoyatda qadimiy turidir. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon badiiy asarlar yaratilib kelinmoqda deb bema'lol aytish mumkin. Badiiy adabiyotning dastlab og'zaki, keyin yozma shakli paydo bo'lgan. Yuqoridagi matnlar mazmunidan birinchisi Sizga ko'proq ta'sir etdi. Sababi shoir obrazli tasvirlagan. Shuning uchun ***badiiy obraz*** ijodkorning

fikr, tuyg`u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasvirini belgilaydi. Shunday ekan, adibning fikriga uning his, tuyg`u va sezimlari ham aralashgani uchun boshqalarga ta`sir qiladi. Masalan, inson umri o`tkinchiligini shoir shunday tasvirlaydi.

Umr deganlari o`tmakda shoshqin,
Tilla barglarini elab yo`limga

Xullas, tasvirning obrazlilikini ta`minlash uchun so`zning oddiy odamlar nazaridan yashirin imkoniyatlaridan foydalana bilish lozim

Darsni mustahkamlash uchun quyidagi savollarga mustaqil javob topish topshirig`i beriladi va darslikda berilgan testlarga og`zaki javob topiladi.

Savol: 1. Ko`rkam adabiyot deganda qanday adabiyot nazarda tutilgan?

2. Badiiy va ilmiy adabiyotning farqini keltiring.

3. Og`zaki va yozma adabiyot nima?

4. Adabiy asarning kitobxon tuyg`ulariga ta`sir etish sababini tushuntiring.

Uyga vazifa: o`qilgan badiiy kitoblar ro`yxatini tuzish.

7-sinf 2- chorak

Mavzu: Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asari

Darsning maqsad:

- yozuvchi va uning asari haqida ma`lumot berish, tahlilga o`rgatish;
- o`quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda o`zgalarining ruhiy kechinmalarini tushunish, darddoslik tuyg`ularini o`stirish;
- o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, o`zgalar kechinmalarini ilg`ashga o`rgatish.

Darsning metodi: Aqliy hujum, guruhlarda ishlash

Darsning borishi:

1. O`tilgan mavzuni suhbat asosida so`rash va mustahkamlash.
2. Aqliy hujum.
3. Adib umrbayoni bilan tanishish.
4. Asar matnini o`qish, matn ustida ishlash.
5. Yangi mavzuni mustahkamlash. Guruhlarda ishlash.
6. Fikrlar himoyasi.
7. Uyga vazifa berish.

**O`tilgan mavzu** Mirtemir she`rlarining o`ziga xos jo`shqin, o`ynoqi jihatlarini, ota yurt tabiatiga muhabbat, uning tengsiz go`zalligi tasviri savollar asosida so`ralib, suhbat o`tkaziladi, dars mustahkamlanadi.

Yangi mavzu bayoni. Aqliy hujum:

Ch. Aytmatov kim, uning ijodiga xos qaysi asarni bilasiz?

O`quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va to`ldirish uchun adib umrbayoni bilan tanishtiriladi.

O`rganilajak asarni mukammal o`zlashtirish uchun uni yozgan odamning shaxsini bilish katta ahamiyatga ega. Adibning otasi hukumat idoralarida mas`ul vazifalarda ishlaganiga qaramay, qatag`on qurboni bo`lgani, bo`lajak adibning 12-14 yoshlarida qishloq kengashida kotib bo`lib ishlagani, «odamlarni, hayotni

g'oyat yaxshi bilgan, chin yurakdan yaxshi ko'rgan»i, «kishilar uchun juda aziz, juda zarur bo'lgan tuyg'ularni, holatlarni, mavzularni qalamga olgan»i, bu ulug' insonning bolalarni sevishi, ularni tushunishi, ardoqlashi va ayashga intilishiga e'tibor qaratilsa, o'quvchilarda adib shaxsiga mehr uyg'onadi. Dong'i dunyoga taralgan ulug' kishilarning bolaligi qaysidir jihatlari o'z hayotlariga o'xshab ketishini sezish o'quvchilarni o'z ertasiga ishonch bilan qarashga o'rgatadi.

Asar matnini o'qish:

Kimnidir yoki nimanidir yaxshi ko'ra olish- insonga berilgan bebaho ne'matdir. O'quvchining asar qahramoni bo'lmish «xayolchan va pokiza uka»sini yaxshi ko'rib qolishida matnni ifodali o'qishning ahamiyati beqiyos.

«Oq kema»ni o'qishni boshlashdan oldin o'qituvchining asar matnini soatlarga taqsimlab olishi, qaysi qismini sinfda, qay bo'laklarini uyda o'qish lozimligini rejalashtirib olishi unga vaqtni tejash imkonini beradi. Bu ishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Birinchi darsda, adib haqidagi qisqacha suhbatdan so'ng ikki soat mobaynida asar o'qiladi va «Shunday qilib oq kema haqidagi ertak ham tugadi» tarzidagi qism bilan tugatiladi. Uchinchi soatni «Shoxdor ona bug'u esa, ketish oldidan bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...» jumlasini bilan tugatiladi. Matnning qolgan qismini o'qish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

Qissani o'qishda bolalar diqqati uning boshlanishidagi ikki ertak haqidagi jummalarga qaratiladi. Ertaklarga sarlavha topish topshirig'i beriladi.

Matn o'qib bo'lingach, tahlil jarayonida o'quvchilar tasavvurida qissadagi bola yashayotgan sharoitni jonlantirishga erishish kerak. Shunda bolalarda asarda tasvirlangan voqeani ko'z oldilariga keltirish, qahramon tuyg'ularini his etish va tasavvuridagi holatlarni so'z bilan ifodalash malakasi shakllanadi.

Guruhlarda ishlash. Har bir guruhga asar matni yuzasidan quyidagicha topshiriqlar beriladi:

1-guruh: Qissa qahramoni bolaning portfellik bo'lishdan shunchalik quvonishiga sabab nima? Boladagi o'ychanlik, hayratlana olish, hamma narsani, hatto jonsiz jismlarni ham his etish sizda qanday munosabat uyg'otdi? Siz ham biror narsadan shu darajada xursand bo'la olasizmi? Nima uchun?

2-guruh: Bolaning toshlar bilan do'stlashib, suhbatlashib yurishi boisi nimada, chaqirtikanakni nima sababdan dushman deb biladi? Bola nima sababdan pechak gullarini yaxshi ko'radi? Shiroljinlarning bola ko'ngli, tabiati bilan qanday bog'liqligi bor, bu butalar bag'rida pinhona yig'lagisi kelishining sabablari haqida mulohaza yuriting

3-guruh: Bolaning bobosi- Mo'min cholning ochiqko'ngil, hatto sal- pal biladagan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirligi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi kabi fazilatlarining ba'zan illatga aylanishi, boboning zarariga xizmat qilishi sabablari haqida gapiring.

4-guruh: Mo'min bug'u avlodidan bo'lib, bu bilan g'oyat faxrlanar va o'z qabiladoshlaridan birontasining ma'rakasidan qolmasdi. Buning sababi nimada? Nima uchun adib Mo'min cholni kamdan-kam uchraydigan baxtli odam deb baholaydi?

Guruhlar fikrlari himoyasi:

Guruhlarda fikrlar himoya qilinganda o`quvchilar bahs-munozara asnosida bolaning tabiat qo`ynidagi mavjudotlarga munosabati, ularni sevishi, qay darajadadir o`zini ularga taqdiridosh deb bilishi o`quvchilarga ham yuqadi. Mo`min cholg`a atrofdagilarning munosabati to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini baholashga urinish odamlarga, hayotiy voqealarga o`quvchida munosabat paydo qiladi, nuqtai nazarni shakllantiradi. Odamlarga yaxshilik qilib evaziga hech narsa talab etmaydigan, aksincha, ayrimlarning masharalashiga nishon bo`ladigan, lekin bundan zarra og`rinmaydigan bobo tabiati haqida o`ylash, o`quvchilarni hayotga jiddiyroq qarashga, odamlarning xatti-harakatlariga sinchiklabroq nazar solishga o`rgatadi.

Guruhlar ishi baholanadi. Bunda o`quvchilarning mustaqil fikrlashi va xulosa chiqara olishi hisobga olinadi.

Uyga vazifa: asarning davomini o`qish

2-soatda guruhlarda ishlash davom ettiriladi. Asarning davomi ifodali o`qiladi va o`quvchilarga quyidagi savollar bitilgan kartochkalar tarqatiladi.

1-topshiriq

Mo`min cholni kengashga chaqirishmaganda qattiq ranjib, bu hodisani unutilmasligi sababi nimada deb o`ylaysiz? O`z qadri uchun emas, azaliy urf-odatlarining poymol etilayotganligi uchun xafa bo`la olish tuyg`usini izohlay olasizmi? Mo`min cholg`a xos sifatlarni yozib chiqing.

2- topshiriq

O`rozqul va Bo`key xola timsollari haqida fikr bildiring. Ularning dardi nimada? Ular tabiatiga xos yaxshi va yomon sifatlarni ayting.

3- topshiriq

Seydahmad bilan bola o`rtasidagi munosabat haqida o`z fikringizni bildiring. Yozuvchi mahoratiga munosabat bildira olasizmi?

4- topshiriq

Bolaning portfel va durbin bilan odam bilan gaplashgandek gaplashishiga qanday qaraysiz? Nega shunday? Bu yaxshimi- yomonmi? Bola uchun hammasidan zavqli bo`lgan holat qaysi ekanligini ayting.

5-topshiriq

Bolaning oq kemaga shunchalik bog`lanib qolganligi sababini tushuntiring. Oq kemani ko`rganda nima uchun bolaning yuragi gupurib ketadi?

6- topshiriq

Bolada baliqqa aylanish va oq kemaga suzib borish istagi paydo bo`lishining asl sabablari nimada ekanligini matndan qidirib toping va izohlashga harakat qiling.

Fikrlar himoyasi:

Guruhlar fikrlari tinglanadi. Har bir guruh o'z fikrini himoya qiladi. Javoblarning ayrimlari o'qituvchi kutganidek chiqmasligi mumkin. Lekin matn bilan ishlash, asar ruhiga kirish, qahramonlar holatini tuyish, o'zidan o'tkazish o'quvchiga ko'p narsa beradi, unga «dard» yuqtiradi. O'quvchilarni shunday holatga sola olish o'qituvchining yutug'idir.

Uyga vazifa: Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni o'qish.

3- soat.

Mavzu: Shoxdor ona bug'u haqida ertakni o'qish va tahlil qilish.

Darsning borishi:

1. O'qituvchining kirish so'zi.
2. Asar matni ustida ishlash.
3. Guruhlarda ishlash. Muammoli topshiriqlar berish.
4. Fikrlar himoyasi.
5. O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash.
6. Uyga vazifa topshirish.

O'qituvchining kirish so'zi: Asar garchi ertak tarzida berilgan bo'lsa-da, uning zahirida haqiqat bor. Enasoy daryosi bo'ylarida haqiqatan ham turkiy xalqlar istiqomat qilganlar. Ular chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sibirdagi ko'pgina joy nomlarining turkcha ekanligi ham mazkur holatni tasdiqlaydi.

Dastlab asarda berilgan Enasoy haqidagi qadimiy turkiy qo'shiq tahlil etiladi. Mazkur qo'shiqdan xalqning o'z yeri va o'z vatanini qanchalar chuqur mehr bilan sevganini his etish mumkin. Asar tahlili bo'yicha quyidagi topshiriqlar guruhlariga tarqatiladi:

1-topshiriq

Daryoning Enasoy deb nomlanishida qanday ma'no bor deb o'ylaysiz? Matnga tayanib xulosangizni ayting.

2-topshiriq

O'rmonda paydo bo'lgan qushning qichqirig'i nimadan darak edi?
“Odamning odamga ichi achimasdi” jumlasini qanday tushundingiz?.

3-topshiriq

Sho'xlik va o'zboshimchaliklari tufayli o'rmonga ketib, shu sabab tirik qolgan bolalarning ruhiy holatlari haqida fikr bildiring

4-topshiriq

Qabilalar o'rtasida dushmanlikni keltirib chiqargan sabablar qaysi deb o'ylaysiz?

5-topshiriq

Bolalar kelganda g'alabalarini nishonlayotgan qabiladagilar nega muncha qo'rqib ketganliklariga sabab nimada deb o'ylaysiz?

6-topshiriq

Bobosining Shoxdor ona bug`u haqidagi ertagi bolaga qanday ta'sir qildi? Shu o`rinlarni qayta o`qing va buning sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

7-topshiriq

Insonlar bilan bug`uning oqibat, ezgulik, sadoqat borasidagi hamda odamzod bilan hayvonning tili, dili va faoliyatidagi jihatlarni solishtirib munosabat bildiring.

8-topshiriq

Ona bug`uning kimsasiz qolgan bolalarga mehribonligi, yordam berganligi, odamlarga, ezgulikka hamisha sodiqligining sabablari nimada deb o`ylaysiz?

Fikrlar himoyasi. O`quvchilarning fikrlari umumlashtiriladi va to`ldiriladi. O`qituvchi yuqoridagi savollar yordamida o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish bilan birga ularni tez-tez matnga murojaat etishga yo`naltiradi. Bundan kutiladigan maqsad o`quvchilar ko`nglida odamzot tomonidan amalga oshirilgan vahshiyliklarga nafrat uyg`otilishi kerak. Inson –qancha olijanob va yaratuvchan bo`lsa, shunchalik darajada vahshiylik va buzg`unchiliklarga ham qodir. Buni atrofimizdagi odamlarda ham har xil ko`rinishda uchratish mumkinligi o`quvchilarga singdirilishi kerak. O`z hislatlarini qaysidir tomonga yo`naltirish, o`zida qanday ma`naviy sifatlarni tarkib toptirish insonning o`ziga bog`liq. U shunday dahshatlarni sodir etmasligi, inson nomiga chinakam munosib bo`lishi uchun uning ko`nglini chiroyli qilishga erishishi kerak. Ko`ngli chiroyli bo`lgan, go`zallikdan quvonib, bahra oladigan etib tarbiyalansa, u o`zgalarni ayaydigan bo`ladi. Razilliklardan hazar qiladi, yomonliklarga jur`at etolmaydi.

O`rganilganlar yuzasidan savol-javob o`tkaziladi, faol o`quvchilar rag`batlantiriladi.

4-soat

Darsning rejasi:

1. Matnning qolgan qismini o`qish.
2. Boshqa bo`limlar yuzasidan umumiy savol va topshiriqlar berish.
3. Bahs-munozara, tahlil.
4. Test topshiriqlari.
5. Darsni mustahkamlash.
6. Uyga vazifa topshirish.

Matnning davomi o`qib o`rganilgach, o`quvchilarga quyidagicha savollar beriladi.

1-topshiriq. Ona bug`uda inson zotini yaxshi ko`rish, uning avlodlarini saqlab qolishdan ko`ra, undan nafratlanishga va urug`ini quritib yuborishga asos ko`proq ekanini matndan topib o`qing va buning sababini tushuntirishga harakat qiling.

2-topshiriq. Baymoq kampir ona bug`uga: «Odam bolalari seni yaxshilingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o`zingdan ko`r» deganida nimani nazarda tutgan edi?

3-topshiriq. Ona bug`uning bolalarga: «Sizlar keltirgan tilni avlodlar unitmaydi. Ularga o`z tillarida so`zlash va kuylash yoqimli bo`ladi. Insonlar qanday yashashi kerak bo`lsa shunday yashanglar» degan fikrni sharhlang.

4-topshiriq. Bug`uboy avlodlarida shoxdor Ona bug`uga bo`lgan e`tiqod qanday edi, bu e`tiqodga putur yetishining sababi nimada edi?

5-topshiriq. «Butun umr bo`yi bug`u nima ekanligini ko`rmagan yangi insonlar tug`ildi» jumlasining o`zingizga qay darajada dahli bor deb o`ylaysiz?

6-topshiriq. Bolaning shoxdor Ona bug`u kallasini ko`rgandagi holati tasvirlangan o`rinlarni qayta o`qing va bu haqda fikr bildiring.

7-topshiriq. O`rozqulning o`ldirilgan bug`u shoxini olishdagi xatti-harakati sizda qanday munosabat uyg`otdi?

Yuqoridagi savollarga javob berish asnosida o`quvchilar o`z fikrlarini mustaqil bayon etadilar. Asar qahramoni ruhiyati, kechinmalari va holati qahramon misolida o`quvchilarni o`zga insonni his etishga o`rgatib boradi. O`quvchilar bir-birlarini fikrlarini e`tibor bilan eshitishlari lozim. Shunda ular boshqalarni fikrini takrorlamaydigan, o`z qarashlariga ega, mustaqil mulohaza yuritishga qodir, o`zicha qat`iy qaror qabul qila oladigan kishilar sifatida shakllanadilar.

**O`quvchilarni toliqtirmaslik uchun ularga qiziqarli bo`lgan o`yin tashkil etish mumkin.** Masalan, «Oltin toj» o`yini, u quyidagicha tashkil etiladi.

“Oltin toj” o`yini katta mavzu yoki bir bo`lim tugagandan so`ng mustahkamlash, umumlashtirish darslarini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bunga o`qituvchi avvaldan tayyorgarlik ko`radi. “Tojga” va unga o`rnatiladigan asar yoki qahramon nomlari yetarlicha tayyorlanadi. Bu “Asar nomini toping”, “Qahramon nomini ayting” va h.k. tarzda bo`lishi mumkin.

Bir o`quvchi doskaga chiqarilib, unga ko`rsatmasdan biror asar yoki qahramon nomi yozilgan **toj** kiygiziladi. Unga topshiriq qisqacha tushuntiriladi. Sinfdagi o`quvchilar uni ko`rib turadilar. Toj kiygan o`quvchi sinfdagi o`tirgan o`quvchilarga ular “ha” yoki “yo`q” deb javob berishlari mumkin bo`lgan savollarnigina berishi mumkin. Masalan, tojga biror qahramon nomi yozilgan bo`lsa, shunday savollar berilishi mumkin. Asarmi?, Qahramonmi?, “Susambil”danmi, ... danmi?

Shunda o`quvchilar faqat “ha” yoki “yo`q” javobini beradilar.

Sinfdagi o`tirgan o`quvchilar ortiqcha ma`lumot va tushuntirishlar bermasliklari kerak. Bir darsda bir qancha o`quvchilar navbat bilan yoki bir vaqtda “toj o`yini”da ishtirok etishlari mumkin. Eng kam savol berib javobni aniqlagan o`quvchi rag`batlantiriladi.

Test topshiriqlari bilan ishlash

1. “ Oq kema” asarida “tuya”, “bo`ri”, “egar”, “tank”larga o`xshatilgan narsa nima edi?

A.Rasm.

B. Hayvon.

S. Mashina.

D. Harsang.

2. Quyidagi so`zlarni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“Ming yillar tinch-totuv yashaganlar. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o`z ona tillarida so`zlash va kuylash yoqimli bo`ladi.”

- A. Mo`min.
B. Botir Qulchi.
S. Ona bug`u.
D. Bo`key.

3. Bug`uboy avlodlarida takabburlik qachondan boshlandi?

- A. Bug`ular Issiqko`lni tark etishgach.
B. Bu`guboy avlodlarining oshib-toshib ketgan mashhur boyi o`lgach
S. Issiqko`lni dushmanlar bosib olgach
D. O`rozqul tomonidan bu`gu o`ldirilgach

4. Quyidagi fikrni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“..... qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug`diradi, .... pul hukmron bo`lgan joyda ezgu so`zga o`rin yo`q....”

- A. Boymoq kampir.
B. Mo`min chol.
S. Shoxdor ona bug`u.
D. Botir Qulchi.

O`quvchilar asardagi har bir qahramonga xos insoniy sifatlarning qandayligini matnga tayangan holda quyidagi jadvalga mustaqil yozadilar.

Mo`min chol		Bola		O`rozqul		Bo`key		Seydahmad	
Yaxshi sifatlari	Yomon sifatlari	Yaxshi sifatlari	Yomon sifatlari	Yaxshi sifatlari	Yomon sifatlari	Yaxshi sifatlari	Yomon sifatlari	Yaxshi sifatlari	Yomon sifatlari
Pok e`tiq- odli, sami- miy ...									

Yuqoridagi topshiriqning davomini hamda «Qissadagi bola timsoliga tavsif» mavzusida taassurot yozishni **uyga vazifa** etib topshirish mumkin.

**Ch. Toshmirzayeva, Toshrent hsahar
Filologiya yo`nalishidagi maktab
–internat o`qituvchisi**

8-sinf 1- chorak

Mavzu: Lutfiy. G`azal matni ustida ishlash

I. Ilmiy maqsad: Mavlono Lutfiyning mustaqil o`qish uchun berilgan “Holiyokim...” deb boshlanuvchi g`azali matni ustida ishlab, tahlil qila olish malakasini hosil qilish.

II. Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarda mumtoz adabiyotga muhabbat uyg`otish.

III. Rivojlantiruvchi maqsad: Matn ustida ishlash, g`azal o`qiy olish, nazariy bilimlarni matn tahliliga joriy etishni bilim darajasidan avval ko`nikma, so`ng malaka darajasiga yetkazish.

Darsning borishi:

- I. Kirish qismi:

- a) Tashkiliy qism;
- b) Takroriy qism.

Tashkiliy qismda darsga sinfnining tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Yo'qlama qilinib, o'tilgan mavzu yuzasidan test sinoviga tayyorgarlik ko'riladi.

Dars jihozi: multimedia, ekran, ekranda Lutfiy portreti. Xattaxtada o'quvchilar tomonidan ishlangan Mavlono Lutfiy surati, test savollari.

I. Dars o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi:

... Biz o'tgan darslarimizda "Kuntug'mish" xalq dostoni bilan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni bilan tanishgan edik. Kuni kecha Lutfiy ijodi bilan tanishishni boshladik. Siz uning g'azallari bilan tanishdingiz. Hozir siz sevib tinglaydigan "Sensan sevarim..." qo'shig'ini tinglaysiz. Shu qo'shiq yangrab bo'lguncha siz test topshiriqlarini bajarasiz.

O'quvchilar qo'shiq tugaguncha testlarni ishlaydilar. Test kaliti ekranda ko'rsatiladi. O'zlarini o'zlari baholaydilar.

II. **Asosiy qism:** Ekranda Lutfiyning "Holiyokim..." deb boshlanuvchi g'azali ko'rsatiladi.

O'qituvchi avval she'ni ifodali qilib o'qib beradi. Keyingi slaydda g'azalni tahlil qilish tizimi reja sifatida beriladi.

Reja:

1. G'azalning mohiyatini baytma—bayt ochib beriladi.
2. Texnik xaritasi beriladi:
 - a) vazni: ramali musammani mahzuf
 - b) afoyili: foilotun foilotun foilotun foilun
 - c) taqte'si: - v - - - v - - - v - - -v -
3. Qofiya va radif
4. San'atlari.

O'quvchilar bilan hamkorlikda bajariladi.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganayotganda eng ko'p qayd etiladigan janrlardan biri g'azaldir. G'azal tahlili bir necha bosqichda olib boriladi.

Jumladan:

1. Mazmun – mohiyati tahlil qilinadi.
2. Texnik xaritasi ishlab chiqiladi:
 - a) vazni haqida ma'lumot beriladi
 - b) afoyili qayd etiladi
 - c) taqte'sini topib, chizib chiqiladi.

3. Qofiya va radifi o'rganib chiqiladi.

4. Mazkur g'azalning ma'naviy va lafziy san'atlari tahlil qilinadi va so'zning qudrati, nafis adabiyotning go'zalligi ta'kidlanadi.

Mustaqil o'qish uchun berilgan g'azallardan biri **"Holiyokim..."** deb boshlanuvchi g'azalning tahlili qisqacha quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

1. Mazmun - mohiyati baytma-bayt tabdil qilinib, unda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarga alohida ahamiyat qaratiladi. G'azalning sof tasavvufiy yo'nalishda ekanligi, ilohiy ishq kuylanayotgan davronning o'tkinchiligi-yu, mahbuba (Olloh)ga muhabbatning boqiyiligi ta'kidlanadi. Masalan,

Holiyokim, davri ishrat tur iliktin jomni

Solmag'ilkim, ko'rdim asru bevafo ayyomni.

Hol buki, bu dunyo juda (**asru**) bevafo, shunday ekan, qo'ldan (**iliktin**) qadah (**jom**)ni qo'yma, chunki ishrat zamonidir. Birinchi ko'rinishda mayho'rlikka da'vat etayotgan bu misralarning botinida o'tkinchi dunyoga bog'lanmay, Olloh visoli mayi bilan ishrat qilish lozimligi uqtiriladi. Bu o'rinda **holbuki** kiritmasining **holiyokim** shaklida, **qo'l** so'zining **ilik** shaklida, **juda** so'zining **asru** shaklida, olma, qo'yma buyruq fe'lining solmag'ilkim shaklida ishlatilganligining guvohi bo'lamiz. Qolgan baytlar ham shu tartibda o'rganib chiqiladi va arxaik so'zlarning mazmunini tahlil qilish orqali g'azalning ma'naviy qudrati ochib beriladi.

1. G'azalning texnik xaritasi:

a) vazni : **Ramali musammani mahzuf**

b) afoyi: **foilotun foilotun foilotun foilon**

c) taqte'si: - v - - - v - - - v - - -v-

3. Qofiya va radifi

Jom, ayyom, xos-u om, gulfom, bodom, dashnom, ikrom, orom so'zlari qofiya sifatida qo'llangan. Raviy tovush (m) dan keyin qo'shimcha qo'llanganligi uchun bu **mutlaq** qofiya hisoblanadi.

Bu g'azalda radif qo'llanilmagan.

4. Ma'naviy va lafziy san'atlari. G'azalda bir qator badiiy san'atlardan unumli foydalanilgan. Masalan,

Bodaningki, lazzatini bilgay erdi Xizr, agar

Ichgay erdi obi hayvontek mayi gilfomni

baytida shoir **talmeh, tanosub, tashbeh, sifatlash** kabi bir qator san'atlardan unumli foydalangan.

G'azal matni ustida ishlash jarayonida o'quvchi she'rning ham texnik tomonini, ham mazmun– mohiyatini chuqur o'rganadi. So'zning ma'nosiga e'tibor qaratadi, she'rning latofatini his qilish orqali ma'naviy barkamollikka intiladi.

III.Mustahkamlash: “Muqobillarning eng maqbuli” topshirig'i bajariladi. Bunda Lutfiy g'azallaridan 3 ta bayt saralanadi. Baytlardan 1 tadan so'z tushiriladi. Matnda esa mos keluvchi (ham mazmunan, ham shaklan) so'z qo'yilishi kerak. Zarur so'z muqobillari bilan berilgan.

IV.Uyga vazifa: Lutfiyning ushbu g'azalini yodlash.

V.Baholash va darsni yakunlash.

**N. Mirhabibova, Tohskent
shahar 155-maktab oqituvhisi**

8-sinf 2- chorak

Mavzu: Alisher Navoiyning “O'n sakiz ming olam oshubi”
g'azali

Darsning maqsadi.

1. Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarning nazmiy go`zallikni his qilish, undan zavqlanish tuyg`ularini shakllantirish

**2. Ta`limiy maqsad :** a)g`azalni sharhlash, mazmunini o`zlashtirish san`atkorlik qirralarini ochish

b)o`quvchilarni tahlilga o`rgatish, ularning ijodiy tafakkurlarini o`stirish, ijodiy imkoniyatlarini namoyon qila bilishga o`rgatish

Darsning jihozlanishi:


Alisher Navoiy portreti, asarlaridan namunalar, jadvallar, rasmlar, audio va video tasmlar.

Texnik vositalar: Magnitofon, televizor.

Dars usullari:

1. “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Aniqlash”, “Tadqiqot”, “Ijod”.

Amalga oshiriladigan tahliliy bosqichlar:




O`qituvchi:

“Dunyo degan shundayin anglab bo`lmas sir ekan...”. Darhaqiqat, shoirimiz Abdulla Oripov aytganidek, dunyo - sir, hayot-sir. Qo`liga qalam ushlagan zot borki, ana shu “anglab bo`lmas sir” ning tagiga yetishga urinadi. Lekin olam sir – sinoatlarini Navoiychalik izlagan shoir kam bo`lsa kerak. Chunki, she`riyatning o`zi ham sir! Mumtoz so`z san`atkorlari satrlarida jo bo`lgan jilolarni aniqlash, bilib olish uchun nimalarga e`tibor berish lozim? Shoirni qalam tutishga undagan dard nimadan iborat? Asarda qanday ichki ma`nolar yashirin? Bugungi darsimizda ana shu savollarga javob izlaymiz, Navoiy g`azallarining sehrli olamiga sayohat qilamiz.

“Aqliy hujum”

G`azal nima?

O`quvchilar g`azal haqidagi dastlabki fikrlarini shu paytgacha o`rgangan bilimlari asosida bildirib boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Noto`g`ri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi. Chiroyli, asosli fikrlar rag`batlantiriladi va umumlashtiriladi. O`qituvchi rahbarligida “Klaster” usulidan foydalanib, g`azalga ta`rif beriladi.



O`quvchilar mustaqil fikr bildirib, bu usulni davom ettirishlari mumkin.

**O`qituvchi:** Har g`azalning o`z go`zalligi, maromi, ta`sirchanlik quvvati bor. Alisher Navoiyning “O`n sakiz ming olam oshubi...” g`azalining badiiy malohati, mahorat mahsuli ekanligi har qanday kitobxonni maftun etadi.

Suxandon Mirzohid Rahimov tomonidan o`qilgan g`azal audio tasma orqali eshittiriladi.

“Tadqiqot”

O`qituvchi topshirig`i bilan o`quvchilar guruhlarda kichik ilmiy tadqiqot o`tkazadilar va natijalarini himoya qiladilar.

Savollar: 1. G`azalning insonga ta`sirini qanday tushunasiz?

2. G`azalning ma`no va ifoda boyligiga asosiy sabab nima?

3. G`azalning yaratilish davri, qofiya tizimi va uning asosini nima belgilashini aniqlang.


1-guruh: Shoir so`zlarini misralarga, misralarni baytlarga ulaydi. G`azaldagi har bir so`z qalam kuchi bilan shuurimizda ta`sir uyg`otadi, ruhimizda ajib hislar paydo etadi, tafakkurimizni g`oyalar sari yetaklaydi, boyitadi.

2-guruh: G`azalda 73 ta so`z ishlatilgan. Ayrimlari bir necha bor qo`llanganini qo`shib hisoblasak, ular soni 99 taga yetadi. Lekin g`azalda ifodalangan ma`nolarni boshqa birov shuncha oz so`z bilan Navoiychalik bayon eta olmasa kerak. Shoir dahosi, mahorati g`azalni shu darajaga ko`targan.

3-guruh: Bu g`azal Navoiyning balog`at (yetuklik) davri lirikasi mahsuli bo`lib, yetti bayt, 14 misradan iborat. G`azal a-a, b-a, v-a, g-a,d-a tarzida qofiyalangan. Mumtoz adabiyotda qofiya maxsus fan sifatida o`rganiladi. Qofiya asosini so`z o`zagidagi so`nggi tovushning takrori tashkil etadi. Ana shu tovush **raviy** deyiladi.

Anglash.

**O`qituvchi:** G`azal yuksak badiiyati tufayli shuhrat topgan. “O`n sakiz ming olam oshubi...” g`azalini quyidagi qatlamlar orqali ko`rib chiqaylik.



**1. So`z qatlami.** So`z nuqtai nazaridan shoir biror yerda yor deganda Yaratganni ko`zda tutayotganini oshkor bildirib o`tmagan. G`azal, bir qarashda, odatdagidek, 18 yoshli qiz go`zalligi ta`rif-u tavsifiga, uning ana shu chiroyidan hayratlanish tuyg`ulari ifodasiga bag`ishlangandek go`yo. So`z jihatidan g`azal ana shu so`z tizimi mantig`iga bo`ysunadi.

**2. Ma`no qatlami.** Ma`no jihatdan esa ana shu so`z zamirida yotgan narsa tushuniladi. G`azalda yor timsoli Haq taoloni anglatib kelishi ayni shu ma`no qatlamini bildiradi.

3. Murod qatlami. Shoirning yorni tasvir markaziga olishidan ham, bu timsol asosida Ollohni ko`zda tutishidan ham ko`zlangan maqsadi bor. Har qanday adabiy asar hayotni aks ettiradi. G`azalda so`z qatlamidagi yor ham, ma`no qatlamidagi Olloh ham hayotni aks ettirishning bir yo`li – vositasi ekani oydinlashadi. Ana shu 3 qatlam uyg`unligi birgina g`azalda yor ishq, hijron azoblari, hayotdan zavqlanish, go`zallik va dunyo sirlaridan hayratlanish g`oyalarini tarannum etish imkonini beradi.

Tahlil.

G`azal guruhlar o`rtasida baytma – bayt tahlil qilinadi.

1-guruh:

O`n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,

Ne ajab, chun sarvinozim o`n sakiz yoshindadur.

“O`n sakiz ming olam” – olloh yaratgan tamomi borliqni bildiradi. O`n sakiz yoshli dilbarning sarvinozligidan ko`ra, uning shu yoshdagi ma`naviy-ruhiy ahvoli tasviriga urg`u beriladi... Timsol va iboralar rivoji quyidagicha talqin etilgan: “O`n sakiz ming olam”, “O`n sakiz yil”, “O`n sakiz yosh”, “O`n sakiz yil”, “Yuz sakson yil”, “Hayrat”, “Aqlg`a yuz hayrat”, “yuz hayrat”.

2.guruh:

Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki, bor,

Barchasi ezid taolo suno naqqoshindadur...

Navoiyning fikricha, har qanday hayratomuz go`zallikning yaratuvchisi va ijodkori “suno naqqoshi” – xudodir. Har bir jon zot, shu jumladan inson ham ilohiy mavjudotning zarrasi, aksidir. Har bir chiroyda Tangri taolo jamoli jilvalanib turadi.

3-guruh: Uchinchi baytdagi “Ul balolar kim ko`z-u qoshindadur” iborasi bir necha ma`noni ifodalaydi:

1. “Ul (ya`ni eslatilgan) balolarning bari uning ko`zi–yu qoshi (chiroyi) ustida bo`lyapti”.

2. “Ul balolar uning ko`zi o`ngida va qoshida bo`lib turibdi, chunki u shoh, shoh esa (husn shohi) bu balo – qazolardan bexabar bo`lishi mumkin emas”.

Tahlil davomida g`azalga joziba baxsh etgan tasvir va ifodalar tizimini ko`rib boriladi, ziynatlagan she`riy san`atlarning turlari aniqlanadi.

4-guruh: G`azalning oltinchi baytida Iso payg`ambarga ishora qilingan. Bu talmeh san`atiga misoldir:

*May ketur, ey mug`ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bula jablarkim, bu eski dayr xuffo shindadur.*

G`azalning maqta`sida istioradan foydalanilgan:

*To Navoiy to`kdi ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi uning yoshindadur...*

G`azalning badiiy malohati va chiroyida istioraning ta`siri juda kuchli. Misradagi “ul oy”, “husn shohi” kabilar fikrimizning yorqin dalilidir.

Sharq g`azaliyotida ko`z va qosh madhida aytilgan hamma sifatlar sarvinozning “ko`z-qosh”idagi ul balolar sehrida nazarga olingan. Masalan; ko`z – xunxo`r; ko`z – jallod; ko`z – fitnagar; qosh shamshir kabi qattol. Biri imo qilib, biri jon oladi.

Tahlildan so`ng xonanda Berta Davidova ijrosida mumtoz qo`shiq video tasmadan qo`yib beriladi.

**O`qituvchi:** Aziz o`quvchilar! Navoiyning birgina g`azalida shuncha hayratomuz sehrlar borligidan voqif bo`ldik. Navoiy ijodi ummon bo`lsa, darsimizda bir qatrasining jilvasidan bahramand bo`lish baxtiga muyassar bo`ldik.

«Ijod»

Navoiy ijodidan ilhom olib, quyidagi so`zlardan bayt hosil qiling. Siz kashf etgan nazm chechagi bizning Navoiy bobomizga bo`lgan chuqur ehtiromimiz va bergan yuksak bahomiz bo`ladi.

Har, barchasi, Navoiy, ibrat, so`zi, bir, hikmat, aytqon.

O`quvchilar so`zlarni joylashtirib, qofiyalaydilar. Quyidagi bayt yuzaga keladi.

*Navoiyning har bir so`zi hikmatdurur,
Aytqonlarin barchasi ibratdurur.*

**O`qituvchi:** Darhaqiqat, quyosh kabi so`nmas, oltin kabi qoraymas, mo`jizakor nafis, hayratomuz go`zal, rang – barang va sehrli badiiyat Navoiyning sohir satrlari naqadar zavqli, ilhombaxsh, shavqli va ibratlidir.

Minnatdor avlodingizning ta`zim va tashakkurini qabul etgaysiz, asran uzoq, ammo qalban zamondosh ulug` **INSON!**

**Toshkent shahar 106-maktab
o`qituvchisi M. Isomiddinova**

9-sinf I chorak

Mavzu: “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida
komil inson g`oyasi”

Darsning maqsadi: “Farhod va Shirin” dostonida Farhod timsolining komil inson sifatidagi qirralarini talqin va tadqiq etish; o`quvchilarda komil insonga xos ahloqiy-ma`naviy sifatlarni shakllantirish; mustaqil, erkin ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Darsning metodi: Interfaol usul (“Aqliy hujum”), global ta`lim, guruhlarda ishlash

Darsning jihozi: Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni, Natan Mallayev “O`zbek adabiyoti tarixi”, Najmiddin Komilov “Tasavvuf”, Vohid Zohidov “Ulug` shoir ijodining qalbi”, Navoiy ijodiga xos monografiya, Navoiy g`azallari yozilgan disk, texnik vosita

Darsning tarkibiy qismlari:

1. Darsning tashkiliy qismi
2. “Xursandman” mashqi
3. Guruhlar taqdimoti
4. Bahs-munozara
5. “4 hayrat” mashqi
6. “B.B.B.” mashqi
7. “Hamkorlik” kvadrati
8. Test bilan ishlash
9. Xulosalash
10. Yakunlash va uyga topshiriq

O`qituvchi kirish so`zi:

Aziz o`quvchilar, bugungi darsimiz adabiyot. Keling, darsimizni “Xursandman” mashqidan boshlasak. Bugungi darsimizga dunyo tanigan, bolalar jonidan sevgan O`zbekiston xalq yozuvchisi, bolalar adabiyotining sevimli vakili Xudoyberdi To`xtaboyev tashrif buyurgan. Biz mana shunday ulug` yozuvchi bilan birga dars o`tayotganimizdan nihoyatda mamnunmiz va men o`ylaymanki, bu tarixiy lahzalar har birimizning yodimizda o`chmas iz qoldiradi. Siz ham bir-biringiz bilan bugungi kunda, xuddi mana shu soatda, yuz ko`rishib turganingizdan xursandchilik sifatida dil izhoringizni bildirib qo`ying. Shoir aytganidek:

Hayotning har lahzazi go`zal,

Umrning har dami g`animat.
Endi asosiy darsimizga o`tamiz.
Jahonki, muqaddas neni ko`ribdi,
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.
Shu buyuk o`g`lingni ardoqlab dildan
Xalqim, ta`zim etsang arzigay tamom
Uning nomi bilan birga bitilgan,
Dunyo daftariga o`zbek degan nom!

O`zbek adabiyotining so`nmas quyoshi, ya`ni, “Shamsul millat” deb sharaflangan ulug` mutafakkir shoir, olim, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o`zidan nihoyatda boy va salmoqli asarlar qoldirdi. Bu zoti sharif yaratgan bebaho xazina – lirik asarlar, daholar musobaqasi bo`lgan “Xamsa” asari, qancha-qancha ilmiy, tarixiy asarlari necha asrlar o`tgan bo`lsa ham, to`kis-tugal o`rganib bo`lingani yo`q. Va yana aytish mumkinki, o`z davrida qanday ahamiyat, badiiy qiymatga ega bo`lgan bo`lsa, oradan shuncha yillar o`tib ulug` ustoz yaratgan asarlarning ohori to`kilgani yo`q. U yanada salobat kasb etib, yildan-yilga badiiy va g`oyaviy qimmatini ko`xkan tog`lari singari yuksalib bormoqda.

Keling, navbatni guruhlarga bersak-da, ular bugungi mavzudan kelib chiqib o`z guruhlariga nom qo`yganlar, o`zlarini tanishtirib o`tsalar.

1-guruh taqdimoti. “Muhabbat dunyosi” guruhi. Shiori –
“Bo`lmasa ishq ikki jahon bo`lmasin,
Ikki jahon demaki, jon bo`lmasin”.

- Biz dunyoga kelgan ekanmiz, har bir narsaga mehr-muhabbat ko`zi bilan qaramog`imiz kerak: insoniyatga muhabbat, jamiyatga muhabbat, hayvonotga va tabiatga muhabbat. Hamma muhabbatning boshida avvalo Yaratganga bo`lgan ishq-muhabbat turadi. Navoiy ham ishqni 3 guruhga bo`ladi: avom, xos, siddiq ishq. Ularning birinchisi dunyoviy, ikkitasi ilohiy mazmunga ega. 1 – “Ishqi majoziy”, ikkitasi “Ishqi ilohiy” deyilgan. Navoiy shoirlarni uch guruhga ajratadi: 1- ilohiyot sirlarini kuylovchilar (F.Attor., Rumi hazratlari). 2- ilohiyotga majozni vosita qiluvchilar (S.Sheroziy, H.Sheroziy, X.Dehlaviy). 3- majoziy ishni kuylovchilar (Hoqoniy Shirvoniy, Solmon Sovojiy). Navoiy hazratlari esa bizningcha, ilohiyotga majozni vosita qiluvchi shoirlar qatoriga kiradi. Demak, Navoiy asarlarining tub mag`zida muhabbat olovi yolg`inlanib turadi.

Nodirabegim aytgan misralar ustoz Navoiyga ham xosdir:
Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et.

Shuning uchun guruhimizni “Muhabbat dunyosi” deb atadik.

2-guruh taqdimoti. “Ma`rifat” guruhi. Shiori –
“Ki har ishnik i qildi odamizod,
Tafakkur birla bildi odamizod”.

- Ma`rifatli inson tafakkur qiladi.

Tangri hikmati va ma`rifatining chek-chegarasi yo`qdir. Mashhur olim Shayx Aziziddin Nasafiy inson kamolotiga ikki narsani asos qilib oladi: birinchisi, ahloq, ikkinchisi – o`z o`zini tanishdir. Shu ikki asosga qarab odamlarni uch guruhga ajratadi. 1 - ahloqiy sifatlar bilan bezanmagan. 2- axloqiy sifatlar bilan bezangan. Lekin o`zini tanimagan. 3 – ahloqiy sifat bilan bezangan, ham o`z-o`zini tanigan insonlardir. O`z o`zini tanish esa – ma`rifat deyiladi. Shuning uchun ahloqan bezangan, ma`rifatli inson komil insondir. Shunga ko`ra guruhimizni “Ma`rifat” deb nomladik.

3-guruh taqdimoti. “Kamolot” guruhi. Shiorimiz –

“Kamol et kasbkim olam uyidin,
Senga farz o`lmag`ay g`amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o`tmak beaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq”.

O`z nafsini tiyib, ruhan poklanib ma`rifatga erishgan inson kamolotli insondir. Haqqa faqat kamolotli insongina yetishadi. Navoiy ta`biricha, bu dunyoga kelib-ketishdan maqsad, inson komillik pillapoyasiga ko`tarilishi lozim. Aks holda, bu imtihon, sinov dunyosida poklanmagan bo`lib qoladi.

Shuning uchun ham guruhimiz nomini “Kamolot” deb atadik.

4-guruh taqdimoti. “Haqiqat” guruhi. Shiorimiz –

“Vahdat ahlin fikrati bu – haqiqat
Komil inson hikmati bu – haqiqat”.

- Haqiqatga yetishmoq uchun inson avvalo o`z nafsini yengmog`i kerakdir. Payg`ambarimizning Hazrati Aliga aytgan nasihatlarini keltirish mumkin: “Yo Ali, avliyolik maqomiga yetishgan zotlar ko`pdan-ko`p ibodat qilganlaridan emas, o`z nafslarini yengganliklaridan bunday ulug` darajaga erishganlar”.

- Haqiqatda, nafs insonning juda qudratli xavfli dushmani. Shuning uchun Navoiy “Nafs itin qilsang zabun,

Olamda yo`q sendek shujo” deb yozadi.

- Rabg`uziy esa, “Bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi”, deb yozadi.

Farhodning ustozlari oddiy ustozlar emasdir. Ular piri komillar edi. Boniy – me`mor, qasr qurgan. Aslida, Farhod yuragida ishq binosini qurgan va qurishni o`rgatgan piri komildir. Moniy esa Olloh ishqini qalbgaga naqshlagan ustozdir. Qoran esa ko`ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan ustoz.

Shu bilan birga, Farhod Suhaylo, Suqrotdek ulug`lardan ham saboq olib, komillik sari intiladi. Ishq sirlarini, poklanish ilmini o`zlashtirgan Farhodga o`lim bilan to`qnashuv qo`rqinchli emas. Shuning uchun ham makkora kampirning aldovlaridan so`ng o`zini haqqa topshiradi. Ya`ni o`lim bilan to`qnashadi. Ollohning jamoliga muyassar bo`ladi. Bu ilohiy ma`rifatni Navoiy majozlar vositasida bizga ifoda qilib bergan, shuning uchun ham guruhimiz nomini “Haqiqat” deb nomladik.

Bahs-munozara savollari:

1. “Xamsa” yozish an`anasi kimdan boshlangan? Qanday atalgan? – Nizomiy, “Panj Ganj”
2. Ikkinchi xamsanavis? – Dehlaviy, “Xamsa”

3. Uchinchi xamsanavis? – Jomiy, “Xavt avrang”
4. Xusrav va Shirin mojarosi aslida kimga borib taqaladi? – Eron hukmdori Xusrav Parvezga
5. Birinchi marta bu mojaro kimning asarida tilga olingan? – Firdavsiyning “Shohnoma”sida
6. Unda Farhod obrazi bormidi? – Yo`q
7. Nizomiy ikkinchi dostonini qanday nomlagan edi? – “Xisrav va Shirin”
8. Dehlaviy-chi? – “Shirin va Xisrav”
9. Navoiy-chi? – “Farhod va Shirin”
10. Navoiy nima uchun Xisravni bosh qahramonga loyiq ko`rmadi? – Xisrav manfaatparast, xudbin shaxs edi.
11. Farhodning tug`ilishi bilan bog`liq voqeaga to`xtalib o`tamiz. Farhod tug`ilganda qanday sifatlar bilan tug`ildi?
 - Farri shohiy – Shohlik nuri bilan,
 - “Shu`layi dard” – dardga o`ralgan holatda.
12. “Farhod” ismi qaysi so`zlardan olingan?
 - Firoq, rashk, hajr, oh, dard – “Farhod”
13. Dostonda qanday ifodalangan?

Birinchi guruh - Sha`bistonda tug`di bir yangi oy,
Yangi oy yo`qki, mehri olam aroy

Ikkinchi guruh – Ochildi bog`ida bir otashin vard
Demaykim vard, balkim shu`layi dard

Uchinchi guruh – Yuzinda ishq asrori yozilg`on
Ichinda dard ta`vizi qozilg`on

To`rtinchi guruh – Ko`zida ashk selidin asarlar
Damida oh dudidin xabarlar.

 - 1- Muhabbat nuri ollinda huvaydo,
 - 2- Jamolida vafo tug`rosi paydo.
 - 3- Falak deb: Dard elining shohi oni
 - 4- Malak deb: Dard o`ti ogohi oni.
- 14-savol. Farhodning favqulodda iste`dod egasi ekanligi qanday ta`rif etiladi?
 - 1- Agar bir qatla ko`rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo`q erdi ul varaqni
 - 2- Ne so`znikim, o`qib ko`ngliga yozib
Dema ko`ngliki, jon lavhiga yozib
 - 3- O`qib o`tmak, uqib o`tmak shiori,
Qolib yodida sahfa-sahfa bori
 - 4- Ko`rib chin oshiqlik maqolin,
Topib oshufta mahzun ko`ngil holin
- 15-savol. Farhodning qasr qurilishida qatnashib qanday hunarlar o`rgangani va uning majoziy ma`nosini izohlang. -
- 16-savol. Farhodni hiyla bilan Xisrav zanjirband etganda uning savollariga bergan javobi? – O`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida she`riy bahs bo`ladi.
- 17-savol. Nima uchun Xisrav odamlari Farhodni yaxshi ko`rib qoldilar?– To`g`riso`zligi, mardligi uchun.

18-savol. Farhodni Salosil g`origa besh yuzta soqchi bilan qamab qo`yganlarida Suqrot o`rgatgan duo bilan bandlarni yechib ozodlikka chiqardi, lekin nega qochib ketmas edi? – O`z bo`ynidagi o`limni o`zgalarga ravo ko`rmasdi.

19-savol. Xisravning Makkora kampirni yollashdan maqsadi nima edi? – O`z yurtiga qaytarish edi.

20-savol. Yosuman kampir hiylasiga uchgan Farhod o`zini halok etdi va hatto hayvonlar ham uning atrofini o`rab olib, Farhodga aza tutdilar. Nega? – Butun jonzoqlar, hayvonotlar bilan Farhod tillashar, do`stlashgan edi.

21-savol. Farhodning o`limidan oldin “Bodi sabo”ga iltijosi nimani bildiradi? – Uni dunyoga keltirgan ota-onasidan rizolik so`rashini.

(Hamma savol-javobda Farhodning komillik sifatleri tadqiq etiladi).

“4 hayrat” mashqi bajariladi. Ya`ni har bir guruh dostonidan o`ziga yoqqan eng ta`sirli, hayratga solgan o`rinlarni ochib beradilar.

“B.B.B.” mashqi. Ushbu mashgu`lotda Navoiy haqida shu darsgacha bilganleri, dars jarayonida nimani bilib oldilar va undan so`ng nimani bilmoqchi ekanlikleri so`raladi.

“Hamkorlik kvadrati”. Bu mashgu`lotda dostonning istalgan joyidan bir baytdan olib uni bo`laklab konvertlarga solinadi. Va guruhdan ushbu baytni tiklash so`raladi. Misol uchun, komillikda Farhodga teng bo`lgan Shirin timsoliga xos bo`lgan sifatlar tanlab olinadi.

Test bilan ishlash. Guruhlarga “Farhod va Shirin” dostonidan beshtadan savol test usulida so`raladi. Javoblar hakamlar hay`atiga uzatiladi.

Xulosalash. O`qituvchi: Demak, biz Farhod timsoli orqali nimalarni o`rganamiz?

O`quvchilar: Ishq-muhabbatning shavqidan zavq olishni o`rganamiz.

- Ishq deganda biz nafaqat sevgini, undan tashqari, iroda, sabot, matonat, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, qanoat, halimlik, mehnatsevarlik, xalqparvaplilik, hayo, ota-onaga hurmat kabi tuyg`ularni qalbimizga singdiramiz.

- Navoiy ulug`lagan komil inson Farhod timsoli orqali biz bugungi kunda ajalfurush Xisravlar, g`oratchi Ahramanlar, yovuz makkoralarga qarshi kurashamiz. Bu kurashda Navoiy hamisha bizga madadkordir. Chunki Navoiy kuylagan oliyjanob g`oyalar hech qachon o`lmasdir.

O`qituvchi: “Sinkveyn”ni qo`shadi. Ushbu darsimizda “Sinkveyn” usulidan foydalanib xulosa yasaymiz.

“Sinkveyn” quyidagi qoida bilan yoziladi: 5 qatordan iborat bo`ladi. (Bilamizki “Sinkveyn” qisqa gapda katta axborotni o`z ichiga olgan she`rdir.) O`quvchilar menga yordam beradi:

1-qator. Mavzuni 1ta so`z bilan ifodalang. -“Farhod”.

2-qator. Mavzuni 2 so`z bilan yoriting. -“Navoiyda Farhod”.

3-qator. Mavzudagi voqelikni 3ta so`z bilan oching. -“Komil shaxs timsoli”.

4-qator. Mavzuda munosabat, hissiyotni adabiyot fani bo`lgani uchun 5-6 ta so`z bilan ochish mumkin. –“ Tili pok-u, dili pok-u, o`zi pok”.

5-qator. Mavzu mazmunini 1 so`z bilan yakunlang. –“Ibrat”.

O`qituvchi: Yurtboshimiz bugungi kunda katta e`tibor qaratayotgan “Barkamol avlod” orzusi Navoiy kuylagan, ko`klarga ko`targan komil inson g`oyasi bilan

hamohangdir. Mana, bizga Navoiy dahosining yana bir qirrasi! Darhaqiqat, ham aqliy, ham jismoniy, ham ma'naviy barkamol avlodgina jamiyatni poklay oladi, uni olg'a intilishga, taraqqiyotiga yo'l ochib beradi. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy niyat qilgan komil inson, yurtboshimiz ta'kidlagan barkamol avlod siz-u biz bo'laylik. Zero, qalbida ezgu hislar to'la bo'lgan inson dunyoni saqlashga, go'zalliklar yaratishga qodirdir!

Yakunlash. Bir vaqtda hamma o'quvchilar baholanadi. (Guruhlar familiyasi yozilgan oq qog'ozlarga baho qo'yilib, yozuv taxtasiga yopishtiriladi.)

Uyga topshiriq. Insho. Dostondagi "Farhod va Shirin timsollariga tavsifnoma yozish".

**Toshkent shahar 106-maktab
o'qituvchisi M. Isomiddinova**

9-sinf II chorak

Mavzu: Shoirlikda shoh, shohlikda shoir – Bobur!

(umumlashtiruvchi dars)

Maqsad: Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, ham lashkarboshi, ham shoir, nosir, ham ibratli, mehribon padar sifatidagi faoliyatini ochib berish. O'quvchilarda buyuk bobomiz yashab o'tgan hayot va ijod maktabi bilan iftixor hissini tuydirish, vatanparvarlik, mardlik, dovyuraklik xislatlarini singdirish, ma'naviy kamol toptirish, mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish.

Metod: global, interfaol, guruhlarda ishlash, klaster, sahnalashtirilgan dars.

Jihoz: Zahiriddin Muhammad Bobur rasmi, asarlari, ilmiy kitoblar, gazeta jurnallar, "Boburiylar shajarasi" haqida plakat, "O'zbekiston xaritasi", magnitofon, rag'bat kartochkalari, slaydlar.

Shior: Vatan, to tanda jonim bor, seningdurman, seningdurman.

Tanim xok, o'lsa ham takror, seningdurman, seningdurman

Darsning borishi: Dars "Yaxshilig" musiqa sadosi ostida boshlanadi.

"Xursandman" mashqi

So'ng guruhlariga navbat beriladi.

Guruhlar taqdimoti boshlanadi.

Guruhlar taqdimoti

"Sheryurak" – guruhimiz nomi "Sheryurak"

Boburday shoir kerak!

Maqsadimiz – Bobur yashab o'tgan hayot chiziqlarini va harbiy yurishlarini yoritib berish.

Diqqat qiling!.. Tarix zarvaraqlarida oltin harflar bilan bitilgan shunday sahifalar bor! 1483-yil – o'z "Xamsa"lari bilan olamni egallagan forsiy shoirlarni yengib, turkiy alfozda o'zbekning nomini yuksakka olib chiqqan ulug' Navoiyning "Xamsa"si dunyoga kela boshladi. Va xuddi ana shu yili Tangri Taalo biz o'zbek xalqiga yana bir inoyat qildi – o'z salohiyati, iste'dodi, harbiy mahorati, zakovati

bilan olamni lol qoldirgan shoir va davlat arbobi, mohir sarkarda va olim, tarjimon, Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'onaning Andijon shahrida temuriylar xonadonida dunyoga keldi. Viloyat hokimi Umarshayx Mirzo – Amir Temurga evara – 4-avlod, onasi Qutlug` Nigorxonimning otasi Yunusxon esa 12 avlod bilan Chingizxonga tutashardi. Ko`rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi 2 buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan. Unga Bobur – arabcha “Sheryurak” deb nom qo`yishdi. Bu nom butunlay suvrati va siyratiga singib ketgan edi.

- 1494- yil Umarshayx Mirzoga qarshi o`z akasi – Samarqand hokimi Sulton Ahmad hamda qaynog`asi – Toshkent hokimi Mahmudxon o`zaro til biriktirib, yurish qiladi. Nihoyat, qaltis vaziyat yuzaga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat otasi – Umarshayx Axxi qo`rg`onida kabutarxonasi bilan qulab, halok bo`ladi. Umarshayxdan 3 o`g`il – Bobur mirzo, Jahongir mirzo, Nosir mirzo va 2 qiz qoladi.

- O`g`illarining kattasi 12 yoshli Bobur taomil bo`yicha taxtga o`tiradi. Sulton Ahmadning mag`lubiyati (Ayriliq ko`z yoshlari tinmay turib, qismat unga toj-taxt minnatini kiydirdi). Sulton Mahmudxonning chekinishi.

Bobur bek atka - Mazidbek (Shayx) va Bobo Alibek, onasining yordami bilan 1-g`alabasi – Samarqandni qo`lga kiritdi.

- Samarqandga 3 bor yurishlari, chekinish, ta`rif beriladi.

2 yil sargardonlik – temuriylarning birlashmasligi.

Lirik chekinish “Yod etmas kishini mehnatda kishi”

2) “Topmadim” g`azali o`quvchilar tomonidan o`qiladi

- Andijonda tug`ildi. “Boburnoma” – Jahongir guruhiga Andijon ta`rifi keltiriladi.

Sheryurak

1504-yil - Afg`oniston, Pokiston, Bangladeshni qo`lga kiritishi

1507-yil – Hindistonga qiziqa boshlashi

1525-yildan Hindistonga yurish boshlashi

1526-yil Panipatda Ibrohim Lo`diy qo`shiniga qarshi olib borgan jangi va g`alabasi, 1530-yilgacha Hindistonda olib borgan madaniy-ma`rifiy va obodonchilik ishlari haqida so`z yuritiladi.

Xulosa

Demak, Bobur 47 yil umr ko`rib, notinch yashagan bo`lsa ham, o`zining yuksak iste`dodi, salohiyati tufayli o`z umrini jozibali qila oldi.

“Javohir” - guruhimiz Javohir,
Bobur she`riyatda mohir.

- Qanday asarlar yozganini ayting
- Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g`oyat iste`dodli farzandi edi. Uning hayoti faqat janglar bilan emas, ilhomiy onlar bilan ham to`la edi. U 16-17 yoshlaridan boshlab badiiy ijod bilan shug`ullana boshlagan.
- Bobur o`zbek va fors tillarida ijod qilgan Zullisonayn shoirdir. U ona tilida yozgan she`rlarini to`plab, 1519-yilda Kobulda, 1528-29-yillarda Hindistonda devonlar tuzgan.

- Bu 2 to'plam o'sha joylar nomi bilan "Kobul devoni", "Hind devoni" deb atalgan. Kobul devoni topilgan emas. Mutaxassislarning fikricha, saqlanib qolgan she'rlarining soni 400 dan ortiq. Shundan 119-g'azal, 231 tasi – ruboiy. Shuningdek, shoir tuyuq, fard, masnaviy, qit'a, muammo kabi janrlarda ham ijod qilgan.
- Bobur 20 yoshida "Xatti Boburiy" kashf etdi.
- Musiqa bilan shug'ullanib, "Chorgoh" maqomida "savl"lar bitdi.
- 1521-yilda she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi "Mubayyinul-zakot" ("Zakot bayoni") asarini yozdi.
- 1523-25-yillarda aruz vazni haqida "Muxtasar" nomli risola yozdi. Boburning "Harb ishi", "Musiqa ilmi" asarlari hanuz topilgan emas.
- 1528-yilda naqshbandiya shayxlaridan bo'lgan Xo'ja Ubaydulla Ahrorga juda e'tiqod qilar edi, uning fors-tojik tilida yozilgan "Volidiya" asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga tarjima qilgan (bu asar 1-marta 1912-yilda Istambulda "Milliy tatabbu'lar majmuasi"da bosilgan)
- Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarning ma'lum guruhi hasbi hollik xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining ma'lum lavhasi bilan bog'lanadi. Uning ko'p she'rlari "ekspromt" – badiha tarzida yuzga kelgan. 1500-1501-yillarda Bobur Samarqandni 2 bor olib, yana boy beradi. Bir muddat sarson-sargardonlikda yurib xon dodasi Yunusxonning oldiga boradi, umidlari puchga chiqqach:
Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nguldin o'zga mahrami asror topmadim...
Matla'si bilan boshlangan g'azalni yozadi.
- Yana ruhiy ezilishlar natijasida bir ruboiy yozadi:
Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi,
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh
G'urbatda sevinmas emish, albatta kishi.
Yoki:
- Ko'pdin berikim yoru diyorim yo'qdur,
Har lahzayu, har nafas qarorim yo'qdur
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur.
- Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz buncha nam bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor
Kimlarningdir dilbandini tig' bilan, qilich bilan bo'ysundirgan – ulus qayg'usiga sabab bo'lgan Boburning iqrori bu!
- "Visoli lahzasidin zavq topmoqlik erur dushvor
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur"
(Tazod: visol-firoq, lazzat-shiddat, zavq topmoq – jon bermoqlik, dushvor – oson)
oshiq iztiroblarini fojea ekanligidan ta'sirlanasiz.
- Sochi-yu qoshi-yu ko'zidin boshta havodur,
Ne boshda havo, har ikkisi boshqa balodur.

- (boshqa balo – boshqa balo iyyom san`ati qo`llangan ham ruju bor, ham i`shtiyoq bor – “boshqa-boshqa balo” ekanini chiroyli ifoda etish bor)
- Bosh qofiyali ruboiy yozib, o`z ismi-sharifini mangukka muhrlagan.
Tuz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur,
Sarrishtai ayshdin ko`ngulni zinhor –
Uz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur.
(Zahiriddin Muhammad dinning tayanchi va u bunga umrining oxirigacha sodiq qoldi)
 - “Qaddi bila ikki zulfu og`zi,
Jonimga balo bo`lubdur, Oллоh!”
Ushbu baytda Bobur ijodiy mo`jizasiga tasanno o`qiydi, kishi. Yozuv sirlaridan voqif etamiz: qadi, 2 zulf va og`zidan “Oллоh” so`zini istixroj usulida yasagan.
 - Istixroj – harflardan so`z yasash san`atidir
لـ qad, لـ 2 zulf, o`giz – “he” – idyahsx`o ag الله هـ

Xulosa

Demak, Bobur biz bilgan buyuk Temuriyzodagina emas, mislsiz nozik didli shoirimiz hamdir!

“Jahongir” guruhiga navbat

Guruhimiz Jahongir,
Dunyoni zabt etgan Bobur”

- “Boburnoma” tarixiy, badiiy, memuar asardir. “Memuar” so`zi fransuzcha bo`lib, “esdalik” ma`nosini anglatadi. Muallif o`zi ko`zi bilan ko`rgan, real voqealar haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. (M: Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O`tmishdan ertaklar” qissasi)
- Bobur 12 yoshidan taxtga o`tirgandan boshlab, kurashlar, mag`lubiyatlar, g`alabalar, g`am-tashvish va shodliklarga to`la hayoti “Boburnoma”da aks etgan. Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1529-yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg`oniston, Hindistonda ro`y bergan hodisalarni o`z ichiga oladi.
- Boburning o`z so`zi va Gulbadanbegrinning “Humoyunnoma”dagi ma`lumotlarga qaraganda, “Boburnoma” dastlab “Voqeanoma” deb atalgan. Bobur buni bir ruboiysida eslatib o`tadi:
Bu olam aro ajab sitamlar ko`rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko`rdim,
Har kim bu “Vaqoye”ni o`qub bilgaykim,
Ne ranju, ne mehnatu, ne g`amlar ko`rdim.
- Bundan tashqari bir o`rinda Xo`ja Kalonga “Voqeanoma”ni yuborganini esladi.
- Gulbadanbegim esa “Humoyunnoma”da Kobul hokimiyati haqida so`zlab, “Firdavsmakonning (Boburning) “Voqeanoma” kitobida bunga dalil bo`lguvchi fikrlar ko`p aytilgan” deydi.
- Asar keyinchalik Gulbadanbegrinning ta`rifi bilan “Boburnoma” deb yuritildi va shu nom bilan shuhrat qozondi.

- “Boburnoma” 10 dan ziyod qoʻlyozma nusxasi maʼlum. “Boburnoma”ning Boburning hayot davrida koʻchirilgan 2 nusxasi haqida maʼlumotlar boʻlsa-da, biroq ularning qayerda saqlanayotgani maʼlum emas.
- “Boburnoma” XVII-XVIII asrlarda koʻchirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchester, London, Edinburg kutubxonalarida saqlanadi.
- “Boburnoma” 1586-yildayoq fors tiliga, 1705yilda golland tiliga, Djon Leyden va Erskin tomonidan ingliz tiliga, Keyzer tomonidan nemis tiliga, Pavede Kurteyl tomonidan fransuz tiliga, Palyakov, Vyatkin tomonidan rus tiliga tarjima qildi. Shoʻro davrida M.Salye tomonidan toʻla tarjima qilinib 3 marta nashr qilindi.
- “Boburnoma” birinchidan, u nodir tarixiy manbadir. Tarixiy voqealar shunday bir izchillik bilan roʻy-rost aks ettirilganki, uning moʻtabar manba sifatidagi ahamiyati ham ana shunda! Kitob muallifi har qaysi yil voqealarini alohida bir bob sifatida, maʼlum sarlavha ostida batafsil hikoya qiladi.
- Tarixiy manba sifatida afzalligi qimmat, uning begʻaraz, xolis, rostgoʻy bayon etishida (gazetadan foydalanish kerak(1))
- H.Boyqaro haqidagi fikrlar, askarlar bilan birday tutishi, sarkardaligi, sodiq beklari-Doʻstbek haqida, yuzdan ortiq tarixiy shaxslar, tabiat lavhalari, badiiy asar sifatidagi qimmat.
- Mashhur rus sharqshunosi akademik B.Bartold: “Boburnoma”ni “turkcha proza”ning eng yahshi namunasi” deb baho beradi.
- Andijon, Samarqand taʼrifi, Ulugʻbek haqidagi fikri.

Guruhning xulosa

“Boburnoma”-maʼnaviyatimiz sof bulogʻidir. Shuning uchun oʻrganamiz, havas qilamiz, hayratga tushamiz.

“Toj mahal” guruhiga navbatni beramiz.

Bu guruh Boburning 18 ta farzandi boʻlgani, 11 tasi turli sabablar bilan vafot etgani haqida gapiradi. 4 ta oʻgʻli – Humoyun Mirzo, Kamron Mirzo, Askariy Mirzo, Hindol Mirzo. 3 ta qizi: Gulbadanbegim, Gulchehrabegim, Gulrangbegimlar haqida maʼlumot beradi.

Xulosa: Bobur va uning avlodlari ibratga loyiqdir.

- **“Hamkorlik”** kvadrati mashqiga oʻtiladi.
Konvertlarda Bobur ruboiylaridan kesmalar beriladi, uni tez va toʻgʻri tiklashga eʼtibor qaratiladi.
- **“Men aktyorman”** mashqi asosida “Boburning soʻnggi kunlari” (“Yulduzli tunlar” romanidan parcha”) qoʻyiladi.
- **“Zakovat”** oʻyini oʻtkaziladi.

Guruhlarga 4 ta quticha savol beriladi.

1-savol: “Agar yuz ming bahor boʻlsa ham, u narsa ochilmaydi” degan edi, u nima? (Gʻuncha)

2-savol: Bobur u narsani koʻrganda “Vatanini koʻrganday yum-yum yigʻlagan”. u narsa nima? (Qovun)

3-savol: Bobur “Vatandan ketdim, ammo unda mening nimam qoldi, degan? (Anda jonim qoldi)

4-savol. Bobur “Men qoldirgan 1 narsa xalqlar oʻrtasidagi rishtani bogʻlaydi” degan edi. Bu narsa nima? (Boburnoma)

- **“Bahrubayt”** o`tkaziladi. Har bir taqdimotdan so`ng rag`bat kartochkalari berib boriladi. Son`g dars yakunlanadi.
Uyga vazifa. Insho “Bobur – men sevgan shoir”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov va b. “Adabiyot” 5-sinf uhcun darslik
2. S. Ahmedov va b. “Adabiyot” 6-sinf uhcun darslik
3. Q. Yo`ldoshev va b. “Adabiyot” 7-sinf uhcun darslik
4. S. Olimov va b. “Adabiyot” 8-sinf uhcun darslik
5. Q. Yo`ldoshev va b. “Adabiyot” 9-sinf uhcun darslik
6. Q. Husanboyeva. “Maktabda Abdulla Qahhor ijodini o`rganish”.2007y.
7. Q. Husanboyeva. “Adabiy saboqlar”. 6-sinf uchun metodik qo`llanma. 2003y.
8. Q. Husanboyeva. “O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish”.2003y

